

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 148 (937), 2023-yil 27-iyul, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



NUQTAYI NAZAR

O‘ZBEKISTONNING ENERGETIKA BARQARORLIGI YO‘LIDAGI maqsadlari ulkan va strategikdir

Geografik joylashuv, tabiiy boyliklari, iqlim sharoiti va, albatta, yuritayotgan biznes siyosatiga ko‘ra, dunyo davlatlarining iqtisodiy barqarorligini ta‘minlovchi asosiy richaglari turlicha. Masalan, nisbatan ko‘pchilik mamlakatlar uchun sanoat drayver bo‘lsa, boshqalarida agrar sektor, turizm yoki IT yetakchi. Ularda qaysi soha yoki tarmoq asosiy “o‘shish nuqtasi” bo‘lishidan qat‘iy nazar, iqtisodiy taraqqiyotga erishishda umumiy, shu bilan birga, muhim omil bor. Bu elektr energetikasi barqarorligidir. Binobarin, busiz hech bir yo‘nalish, hatto bugungi sanoatlashayotgan qishloq xo‘jaligida ham ko‘zlangan maqsadlarga erishib bo‘lmaydi.



Shu bois, ayni paytga kelib barqaror elektr energiyasi ta‘minoti barcha davlatlar kun tartibidagi muhim masalalardan biriga aylandi. Tobora o‘shib borayotgan talab, global iqlim o‘zgarishlari hamda cheklangan tabiiy zaxiralar hisobiga esa “yashil” iqtisodiyotga

o‘tish bo‘yicha global poyga kuchaymoqda. Mamlakatlar birin-ketin uglerod neytralligi, ya‘ni uglerod chiqindilarining nolga tengligiga erishish maqsadlarini e‘lon qilmoqda.

Davomi 2-betda



INSON QADRI

AHOLI BANDLIGI — FAROVONLIK ASOSI

Har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanish sur‘atini aholining bandlik darajasi belgilaydi. Odamlar ishli, o‘z daromad manbayiga ega bo‘lsa, albatta, farovon turmush kechiradi.

Davomi 4-betda



ILM-FAN

ZAMINIMIZDAGI XILMA-XIL MIKROORGANIZMLAR jahon mikrobiologiya fani uchun o‘ta qiziqarli yangilik manbayidir

Imom Buxoriyning o‘n ikki asr avval “Dunyoda ilmdan boshqa najot yo‘q va bo‘lmagay” degan fikri bugun ham dolzarbligini aslo yo‘qotmagan. Zero, ilm-fan har qanday davlatning iqtisodiy taraqqiyotida poydevordir. Mamlakatning rivojlanishi ilm-fanning nechog‘liq taraqqiy etayotgani bilan ham belgilanadi. Shu bois, yurtimizni ijtimoiy-iqtisodiy ravnaq toptirishda ilm-fan va innovatsion taraqqiyotga, shuningdek, ilm-fanning ta‘lim va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini yanada chuqurlashtirishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Davomi 5-betda



BUGUNNING GAPI

MA’NAVİY TARAQQIYOT

HAYOTIMIZGA YANGICHA RUH VA MAZMUN BAG‘ISHLAYDI



Bugungi kunda jahon hamjamiyati zamonaviy taraqqiyotni ta‘minlash jarayonida ko‘pdan-ko‘p ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bir qatorda insonni inson sifatida ulug‘lab turadigan, jamiyatda ezgu qadriyatlar, axloqiy fazilatlar ustuvorligini ta‘minlaydigan, odamlarni mudom eng xayrli gumanistik g‘oyalar asosida ruhiy kamolot sari yetaklaydigan beqiyos kuch — ma‘naviyatga nisbatan tobora ko‘proq ehtiyoj sezmoqda.

Insoniyatning ming yillik umumibashariy qadriyatlarini “erkinlik” niqobi ostida oyoq osti qiladigan, odamlarni

axloqsizlik va tubanlikning eng jirkanch yo‘llariga boshlaydigan, muqaddas diniy qadriyatlarni yovuz maqsadlari yo‘lida qurolga aylantirishga intilayotgan, shu asosda bashariyatning ruhiy muvozanatini izdan chiqarishga intilayotgan kuchlarga qarshi kuchli ma‘rifat qalqonining o‘rnini tobora yaqqolroq his qilmoqda. Shu ma‘noda, O‘zbekiston Prezidentining BMT minbaridan ilgari surilgan “Jaholatga qarshi ma‘rifat” tamoyili jahoniy da‘vatga aylandi.

Mashhur g‘arb olimi Albert Shveyser “Voqelikni shakllantiradigan kuchlar ichida birinchisi ma‘naviyat va axloqdir”, deya bejiz aytmagan. Insonning surati va siyrati, ya‘ni jismi va ma‘naviyati haqida gapirar ekan, buyuk ma‘rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy “Jism ila ruh ikkisi bir choponning o‘ng ila tersiga o‘xshaydi. Agar jism tozalik, ya‘ni ma‘naviyat va axloq bilan ziynatlanmasa, yomon xulqlardan saqlanmasa, choponni ming yuvganing bilan ichidagi — astaridagi kiri tashqarisiga uraveradi”, degandi.

Davomi 3-betda



RESPUBLIKA MA’NAVİYAT VA MA’RIFAT MARKAZI FAOLLARI VA BIR GURUH MA’RIFAT TARG‘IBOTCHILARINING O‘ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATI

Qadrlı vatandaşlar!

Keyingi oylarda mamlakatimizda bo‘lib o‘tgan ulkan siyosiy voqealar — O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining umumxalq referendumini orqali qabul qilingani va navbatdan tashqari Prezident saylovining muvaffaqiyatli o‘tkazilgani ko‘pmillatli, mard va olijanob xalqimizning yangi O‘zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish yo‘lida naqadani yakdil, birdam va hamjihat ekanini yana bir bor yaqqol namoyon etdi.

Birlashgan xalq, birlashgan jamiyat o‘zining xohish-irodasi, bunyodkorlik salohiyati bilan qanday buyuk ishlar qodir ekanini qadimiylar va boy tariximiz davomida ko‘p bor ko‘rganmiz. “Elning kuchi — birlikda, elning baxti — tinchlikda”, deydi donishmand xalqimiz.

Darhaqiqat, birlashgan el oldida tog‘lar ham bosh egadi. Birlashgan yurtning tinch, erkin va mustaqil hayoti hech qachon buzilmaydi. Birlashgan jamiyat har qanday to‘siq va g‘ovlardan, sinov va mashaqqatlardan yorug‘ yuz bilan o‘tadi, o‘z oldiga qo‘ygan buyuk maqsadlarga albatta, yetadi.

Yaratganga behisob shukrlar bo‘lsinki, bugun bizning xalqimiz ham o‘z kuch va imkoniyatlariga ishonib, kelajakka dadil qarab, ulkan birlik va hamjihatlik ruhi bilan yashamoqda.

Bugungi kunda qanday notinch, murakkab va tahlikali zamonda yashayotganimizni, albatta, barchamiz yaxshi tushunamiz. Hayotning o‘zi ilgari tariximizda, taraqqiyot yo‘limizda uchramagan muammo va vazifalarni oldimizga keskin qilib qo‘ymoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, umumiy va musharak maqsadlar yo‘lida milliy jipslik, har bir ishni ilm, aql va ma‘rifat

bilan, xalq bilan kengashgan holda amalga oshirish, faqat va faqat oldinga qarab borish bugungi hayotimiz va faoliyatimizning kundalik qoidasiga aylanishi lozim.

Ayniqsa, yosh avlodimizni eng ilg‘or ilm va kasb-hunarlar bilan qurollantirib, zamon bilan hamnafas, vatanparvarlik va insonparvarlik ruhida, har tomonlama sog‘lom va barkamol etib tarbiyalash, uni turli yot va begona ta’sirlardan asrash birinchi galdagi vazifamizga aylanmoqda.

Global miqyosda inson qalbi va ongi uchun kurash tobora kuchayib, universal vositalar, ijtimoiy tarmoqlar, erkinlik niqobidagi axloqsizlikni targ‘ib etadigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini yerga uradigan g‘oyaviy tahdidlar va axborot xurujlari kundan-kunga ortib borayotgan hozirgi vaqtda bu vazifalarni amalga oshirish naqadar qiyin ekanini ham barchamizga ayon, deb o‘ylaymiz. Afsuski, **ekstremizm, radikalizm, axloqsizlik, korruptsiya, jinoyatchilik** kabi jirkanch illatlar hali suyagi qotmagan, hayot yo‘lini aniq belgilab olmagani, zararli ta’sirlarga beriluvchan, ma‘naviy-mafkuraviy immuniteti bo‘sh yoshlarimizni to‘g‘ri yo‘ldan chalg‘itishga urinmoqda. El-yurtimiz ravnaqi va farovonligini ta‘minlash uchun amalga oshirilayotgan xalqchil islohotlarni atayin obro‘sizlantirishga, ularning maqsadi va mohiyatini noto‘g‘ri talqin etishga, oilaviy qadriyatlarini oyoq osti qilgan holda, jaholat, ma‘naviy tubanlik, yovuzlik, johillik ko‘rinishlarini keng targ‘ib etib, mo‘may daromad olishga intilayotgan kimsalar ham oramizda yo‘q emas. Bu esa xalqimizni tashvishlantirib, uning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda.

Ana shunday holatlarning tahlili va ularni bartaraf etish bo‘yicha oldimizda turgan dolzarb vazifalardan

kelib chiqqan holda, biz — Respublika Ma‘naviyat va Ma‘rifat Markazi faollari va bir guruh ma‘rifat targ‘ibotchilar mamlakatimizdagi barcha **ota-onalar, ziyolilar, mahalla, xotin-qizlar va yoshlar faollariga, muhtaram nuroniyalarimizga, butun xalqimizga murojaat etishga qaror qildik.**

Muhtaram ota-onalar!

Oila — jamiyatning eng asosiy va tayanch bo‘g‘ini. Aynan muqaddas oila qo‘rg‘oni bizga eng ulug‘ orzu-niyatlarimizni amalga oshirish imkonini beradi. Chinakam insoniy tuyg‘u va fazilatlar, avvalo, oila bag‘rida kamol topadi. Shu bois, oila institutini asrash va mustahkamlash barchamizning buyuk insoniy burchimizdir.

Bugungi kunda hayotimizda sodir bo‘layotgan ba’zi **salbiy va noma’qul holatlarning asl ildizi qayerda? Avvalo, oiladagi tarbiyada xatoga yo‘l qo‘yilgani, azaliy qadriyatlarimiz ta’siri susaygani** natijasi emasmi bu? Zero, mamlakatimizning ertangi taqdiri va kelajagi uchun mas’ul bo‘ladigan jondan aziz o‘g‘il-qizlarimizning tarbiyasi uchun barchamiz **javobgarmiz. Chunki millat bolalarining begonasi bo‘lmaydi. Tarbiya masalasida beparvo bo‘lib, bir chekkada qo‘l qovushtirib turish, bu — Vatanga, kelajakka xiyonatdir.**

Shu ma‘noda, ulug‘ ma‘rifatparvar bobomiz Abduraf Fitratning “**Har bir millatning saodati va izzati albatta shu xalqning ma‘naviy-ruhiy qudrati, ichki intizomi, totuvligiga bog‘liq. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va muazzam bo‘ladi**” degan so‘zlari hozirgi kunimiz uchun ham g‘oyat dolzarb ahamiyatga egadir.

Davomi 3-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



NUQTAYI NAZAR

O'ZBEKISTONNING ENERGETIKA BARQARORLIGI YO'LIDAGI

maqsadlari ulkan va strategikdir



Rae Kvon CHUNG, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Yangi iqlim innovatsiyalari markazini nazorat qilish qo'mitasi raisi

Boshlanishi 1-betda

Gap muqobil energetika imkoniyatlaridan samarali foydalanish haqida borar ekan, bu borada O'zbekiston ilgari surayotgan tashabbuslar, deyarli barcha viloyatlarda amalga oshirilayotgan yirik va istiqbolli loyihalar tahsinga sazovor. Prezident Shavkat Mirziyoyev joriy yil 14-iyul kuni lavozimiga kirishishga bag'ishlangan tantanali marosimda mamlakatda "yashil iqtisodiyot", "yashil energiya" tamoyillari yanada keng joriy etilishini ma'lum qildiki, bu ushbu yo'nalishda boshlangan ishlar izchil davom ettirilishidan dalolatdir.

O'zbekistonning 2030-yilga borib is-si-xona gazlari emissiyasi intensivligini 35 foiz yaxshilash va qayta tiklanadigan energiya ulushini 25 foiz oshirish bo'yicha maqsadlari ulkan va strategikdir.

Prezidentning 2022-yil 9-sentabrda qabul qilingan "Energiya tejovchi texnologiyalarni joriy qilish va kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bu borada muhim huquqiy asos sanaladi.

Ushbu rejaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi nafaqat Markaziy Osiyo uchun salbiy iqlim xavfini kamaytirish, balki O'zbekistonning uzoq muddatli iqtisodiy o'sishi, yangi ish o'rinlari yaratish va kelajakda sanoatning raqobatbardoshligini oshirish uchun ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

"Yashil" o'tish muvaffaqiyati uchun bir nechta muhim pog'onani bosib o'tish zarur. Birinchidan, biznes va iste'molchilar faol ishtirokchilar sifatida "yashil" o'tishga qo'shilishi lozim. Hukumatning kuchli siyosiy yetakchiligi va tashabbuskorligi quyosh va shamol energiyasi kabi qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish uchun investitsiyalarni jalb qilishda juda muhim. Biroq qayta tiklanuvchi energiyani iste'mol qilish va to'lash, YIMning uglerod intensivligini kamaytirish faqat hukumat tomonidan amalga oshirilmaydi. Biznes va iste'molchilar "yashil" ishlab chiqarish va iste'molni rag'batlantirish mas'uliyatini birdek his qilishlari kerak.

Bu borada samarali ishlar olib borilmoqda. Zarafshon shahrida O'zbekistonda birinchi shamol turbinasi o'rnatilgani fikrimiz isboti. U Markaziy Osiyodagi eng yirik shamol elektr stansiyasi bo'ladi. Ma'lumotlarga ko'ra, loyiha 500 mingta xonadonga yetarli hajmda elektr energiyasi ishlab chiqarish va atmosferaga chiqariladigan karbonat angidrid chiqindilarini yiliga 1,1 million tonnaga kamaytirishni ta'minlaydi. Bu kabi loyihalarni ko'paytirsak, foydasini o'zingiz chamalab olavering.



TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDA TASHKIL ETILGAN YANGI IQLIM INNOVATSIYASI MARKAZI TADQIQOT GURUHI A'ZOLARI O'ZBEKISTONDA ILK BOR "ME FIRST CARBON PAY" HARAKATI BOSHLANISHI MUMKINLIGINI MA'LUM QILDI. ULARNING ISHTIYOQI VA JONKUYARLIGI MENI HAYRATDA QOLDIRDI.

Ikkinchidan, uglerod emissiyasi narxi qazib olinadigan yoqilg'i energiyasining bozor narxi bilan birgalikda tariflanishi kerak. Endi qazib olinuvchi energiyada uglerod narxini e'tiborsiz qoldira olmaymiz. Erkin bozorda uglerodga erkin tovar sifatida qaraladi. Biz uglerodga bepul mahsulot sifatida qarasaq, uglerodsiz kelajakka erisha olmaymiz.

Uglerod narxini to'lashimiz kerakligini qabul qilish jarayoni qisqa muddat og'riqli bo'ladi. Ammo atrofimizdakilarni "yashil" iqtisodiyotga o'tish uzoq muddatda "yashil" va inklyuziv bo'lgan iqtisodiy o'sishni yanada oshirishga yordam berishi va yangi ish o'rinlari yaratishi mumkinligiga ishonтира olsakkin, biznes vakillari va odamlar qisqa muddatli xarajatlar va og'irlikni qabul qilishga tayyor bo'lishi mumkin.

Uchinchidan, biznes va iste'molchilar-ni faol ishtirokchi sifatida jalb qilishi mumkin bo'lgan innovatsion iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlarni ishlab chiqish kerak. Texnologik innovatsiyalar muhim va hal qiluvchi ahamiyatga ega. Lekin texnologik innovatsiyalar ta'sirini maksimal darajada oshirish uchun u iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy innovatsiyalar bilan birga amalga oshirilishi lozim.

"Yashil" iqtisodiyot uchun iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy innovatsiyalar asosi sifatida "yashil" bozor va biznes rivojini rag'batlantirish, sanoat va odamlarning turmush tarziga ortiqcha yuk bo'lmasdan, uglerod narxini qazib olinadigan energiyani bozor narxiga bosqichma-bosqich tarifi-lash kerak.

Sinab ko'rish mumkin bo'lgan birinchi innovatsion siyosiy imkoniyat "yashil"

energiya narxlarini tizimidir. Hozir Germaniyada "yashil" elektr energiyasi va "yashil" poyezd chiptasi qimmatroq sotiladi.

Bu ixtiyoriy tizim bo'lib, faqat "yashil" energiya va mahsulotlarni iste'mol qilishni xohlovchi "yashil" iste'molchilar uchun amal qiladi. "Yashil" energiya narxlarini tizimi orqali qo'shimcha to'lovlar qayta tiklanadigan energiyani qazib olinadigan energiyaga qaraganda yuqori narxda sotib olish uchun ishlatiladi.

"Yashil" energiya narxlarini tizimi ixtiyoriy "Me First Carbon Pay" ijtimoiy harakati-ni rag'batlantiradigan innovatsion ijtimoiy siyosat bilan birgalikda samaraliroq bo'lishi, iqlim inqirozidan xavotirda bo'lgan odamlarni birlashtirishga hamda "yashil" energiya va mahsulotlardan "yashil" narxni to'lash orqali ixtiyoriy harakatni boshlashga rag'batlantirish kerak. "Yashil" energiyani to'lash va iste'mol qilish, YIMning uglerod intensivligini kamaytirishga harakat qilish anchayin samarador bo'ladi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzurida tashkil etilgan Yangi iqlim innovatsiyasi markazi tadqiqot guruhi a'zolari O'zbekistonda ilk bor "Me First Carbon Pay" harakati boshlanishi mumkinligini ma'lum qildi. Ularning ishtiyogi va jonkuyarligi meni hayratda qoldirdi.

Agar "yashil" o'tish faqat pul va texnologiyani safarbar qilish bilan bog'liq bo'lsa, O'zbekiston ko'p mablag' va texnologiyaga ega boy davlatlar bilan raqobatlashishda yiqinchiliklarga duch kelishi tabiiydir. Shu ma'noda, "yashil" o'tish nafaqat pul va texnologiya, balki "yashil" ishlab chiqarish va iste'molni rivojlantirish uchun innovatsion iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni qo'llash bilan ham bog'liq. Ushbu

innovatsion siyosat global bozorda raqobatlasha oladigan "yashil" mahsulotlar va xizmatlar uchun yangi bozorlar va korxonalarni yaratishi mumkin. Shuning uchun "yashil" o'tish nafaqat ekologik strategiya, balki kelajakda raqobatbardoshlik, iqtisodiy o'sish va yangi ish o'rinlari yaratish uchun sanoat strategiyasi hamdir.

"Yashil" o'tish uchun boshqa ko'plab innovatsion imkoniyatlar mavjud. Jumladan, ekologik soliq islohoti, ya'ni daromad solig'ini kamaytirish va uglerod solig'ini oshirish, chiqindilardan energiya olish shular jumlasidan. Masalan, 4 tonna chiqindi 1 tonna neftga barobar. Chiqindilarni energiyaga aylantirish bir vaqtning o'zida chiqindilarni boshqarish tizimi, energiya taqchilligi va qayta tiklanadigan energiya ishlab chiqarish muam-molarini hal qilishi mumkin.

Yangi iqlim innovatsiyasi markazi bilan birgalikda boshlamoqchi bo'lgan dastlabki innovatsion loyihamiz paxta dalasini quyosh energiyasi ishlab chiqarish uchun quyosh dalalariga aylantirish va Orol dengizini to'ldirish uchun daryo suvini tejash va boshqarishdir. Quyosh maydonlari uglerod krediti va "yashil" energiya ishlab chiqarishi, bu shaharlarda havo ifloslanishini kamaytiradigan elektr trolleybuslardan foydalanish uchun ishlatilishi mumkin. Paxtakorlarni quyoshli dalalar boshqaruvchisi sifatida munosib ish bilan ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lindi. Ishonchim komilki, Orol dengizini to'ldirish, quyosh energiyasi ishlab chiqarishi ko'paytirish, fermerlarni munosib ish bilan ta'minlash, shaharlar havosi ifloslanishini bir vaqtning o'zida kamaytirish haqidagi rejalarni tez orada amalga oshadi.



DOLZARB MAVZU

ATROF-MUHIT MUHOFAZASI

mavsumiy masala emas

Saidrasul SANGINOV, falsafa fanlari doktori, professor, Islom XUSHVAQTOV, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi

Bugungi kunda nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi muammolar yechimini topish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda qayta tiklash masalalarida sa'y-harakatlarini birlashtirishga intilmoqda. Aslida ham shunday bo'lishi kerak. Ekologiya, tabiatni asrab-avaylashda hech kimning chetda qarab turishga haqqi yo'q. Binobarin, endilikda bular umumbashariyat muammosiga aylanib ulgurdi.

Xususan, Orol dengizining qurishi bilan bog'liq ekologik fojia millionlab odamning turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu ta'sir hatto uzoq qorli cho'qqilarda ham sezilmoqda. Iqlimning keskin o'zgarishi, atrof-muhitning jadal ifloslanishi, yer va suv resurslari degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning qisqarishi kabi transchegaraviy ekologik muammolar esa bunga yanada jiddiyroq e'tibor qaratishni talab etadi.

Aynan shu maqsadda qator ekologik jamoat tashkilotlari tashabbusi bilan 2008-yilda O'zbekiston ekologik harakati (Ekoharakatga) asos solingan edi. Oradan o'n besh yil o'tdi. Bu tarix nuqtayi nazaridan juda qisqa vaqt, lekin biror yo'nalishda amaliy natijaga erishish uchun yetarlicha muddat. Quyida mazkur tuzilma faoliyatini bir qur tahlil qilishni lozim topdik.

Ekoharakat "Sog'lom muhit — inson salomatligi" g'oyasini asosiy shiori hisoblagan holda dolzarb ekologik muammolarni kompleks hal etishda davlat va jamoat tashkilotlari

salohiyatini birlashtirish, ushbu yo'nalishdagi davlat dasturlarining amalga oshirilishiga qo'maklashish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirishga yo'naltirilgan takliflar ishlab chiqish, yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya beshi va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish kabi ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirib kelmoqda. Ana shu ezuq maqsadlar yo'lida o'tgan vaqt davomida yurtimiz va xalqaro maydonda 4,5 milliondan ziyod faolni qamrab olgan 14,5 mingdan ortiq amaliy-tahliliy tadbirlar o'tkazildi.

Atrof-muhit muhofazasi va ekologik holatni sog'lomlashtirishda jamoatchilik ishtiroki faolligini har tomonlama kuchaytirishda davlat hokimiyati organlari, muassasalar va fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorlikning samarali mexanizmi yo'lga qo'yildi. Bu borada qator memorandumlar imzolandi, atrof-muhit muhofazasi va tibbiyot sohasida faoliyat yuritilayotgan NNTlar bilan hamkorlik o'rnatildi. 2009-yilda Sirdaryoda "Ko'chat ek va parvarish qil" shiori ostidagi boshlangan ko'chat ekish aksiyasi keyinchalik respublikamiz bo'ylab guloch yozdi. Pirovardida, umumiy maydoni 90 gektardan iborat 20 dan ortiq ekobog' barpo etildi.

Daraxt ekish aksiyasi bo'yicha jamoatchilik tashabbusi O'zbekiston Prezidenti tomonidan qo'llab-quvvatlanib, "Yashil makon" umum-milliy loyihasiga start berildi. Endi har yili yurtimizda 200 million tup daraxt ko'chati ekish, ushbu ko'rsatkichni besh yilda bir milliardga yetkazish maqsad qilingan.

2009-yildan boshlab yoz mavsumida Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida qator tashkilotlar bilan hamkorlikda tashkil etiladigan "Chimyon sadosi" xalqaro ekologik-turistik festivali doirasida "Biz toza Chimyon uchun" ekologik aksiyasi o'tkazilishi an'anaga aylandi.

Orolbo'y aholisi va atrof-muhit salomatligi uchun Orol fojiasi oqibatlarini yumshatish bo'yicha tadbirlarga faollarni jalb qilish maqsadida keng jamoatchilik ishtirokida 2019-yildan boshlab "Orolga madad" xayriya aksiyasi o'tkazib kelinmoqda.

2022-yil avgustida Senatning Orolbo'y mintaqasini rivojlantirish masalalari va ekologiya qo'mitasi bilan hamkorlikda o'tkazilgan

"Ko'kalamzorlashtirish ishlari jamoatchilik e'tiborida" mavzusida jamoatchilik eshituvi alohida e'tirofga sazovor bo'ldi.

Aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, ekologik ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish Ekoharakatning doimiy diqqat markazida. Maktab o'quvchilari o'rtasida "Onajonim tabiat" ijodiy tanlovi o'tkazilishi an'anaga aylanib qoldi. Mahallalarda "Obod mahalla — shahrimiz ko'rki", "Atrof-muhit muhofazasi barchanang ishi" kabi mavzularda tadbirlar, an'anaviy "Chimyon sadosi" festivali doirasida "Ochiq osmon ostida ekomaktab" mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.

Ekologik muammolar chegaraga bilmaydi

Ekologik muammolarning chegarasi yo'q. Bugun yer yuzining qaysidir chekkasidagi ekologik muammo, albatta, ertaga sizni biz yashayotgan manzilga yetib kelishi mumkin. Shu bois, Ekoharakat xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan aloqalarni rivojlantirishga asosiy e'tibor qaratmoqda. Jumladan, 2016-yilda O'zbekiston ekologik harakatining Namangan viloyati hududiy bo'linmasi huzurida (Farg'ona vodiysi viloyatlari uchun), 2018-yilda Toshkent viloyati hududiy bo'linmasi huzurida (Toshkent mintaqasi uchun) YXHTning O'zbekistondagi loyihalarini koordinatori ko'magida Axborot-resurs markazlari tashkil etildi. Ular aholining ekologik xabardorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Toshkent, Samarqand, Buxoro, Urganch, Nukus va Mo'ynoq shaharlarida o'tkazilgan "ARAL MARATHON" birinchi xalqaro ekologik marafonida 30 mingdan ortiq kishi ishtirok etdi. 2019-yil 24-25-noyabr kunlari O'zbekiston ekologik harakati BMT shafelligida Nukus shahrida o'tkazilgan "Orolbo'y — ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi" mavzusidagi xalqaro konferensiyani tashkil etish va o'tkazishda faol ishtirok etdi.

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish tadbirlarining aksariyati keng jamoatchilik, jumladan, jahon hamjamiyatining e'tirofiga sazovor bo'ldi.

Atrof-muhit muhofazasi davlat, jamiyat va har bir fuqaroning vazifasi bo'lishiga erishish uchun amaliy ishlarga yanada keng e'tibor qaratish lozim.

Aholi o'rtasida profilaktika ishlari-ni kuchaytirish, Orolbo'yida yashovchilar orasida kasalliklarni barvaqt aniqlash va monitoringini yuritish maqsadida "Kegeyli" QVP uchun tibbiy diagnostika jihozlari va vositalari, dori-darmonlar xarid qilindi. Xuddi shu qishloq vrachlik punkti uzluksiz elektr energiyasi va issiq suv bilan ta'minlash maqsadida quyosh fotoelektr stansiyasi va quyosh batareyalari o'rnatildi.

Amudaryo tumanidagi "Okean" va "Bog'i eram" fermer xo'jaliklarida tomchilatib sug'orish tizimi joriy etildi. Jizzax viloyati Forish tumanidagi "Mulla Saidqul" fermer xo'jaligida tomchilatib sug'orish texnologiyasi foydalanishga topshirildi. Bog'larni sug'orish maqsadida yer osti quduq'idan suv olish uchun quyosh va shamol energiyasidan foydalanish tizimi yo'lga qo'yildi.

Buxoro viloyatidagi "Jaloron" ekomarkazi hududida ekosayyohlik salohiyatini oshirish maqsadida tashrif markazi jihojzlandi.

Ekoharakatning hududiy bo'linmalari tomonidan ham Oliy Majlis huzuridagi nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini qo'llab-quvvatlash jamoat fondi granti asosida qator loyihalar hayotga tatbiq etildi. Jumladan, Quyi Zarafshonning geoeologik elektron xaritasini ishlab chiqish, Namangan shahridagi "Kamolot" bog'i-da "Ekoolam" ko'rgazma maydonini yaratish, Sirdaryo qirg'oqlari bo'yab ekoturizmni rivojlantirish, Farg'ona va Xorazm viloyatlarida aholining ekologik dunyoqarashini shakllantirishga ko'maklashish bo'yicha yoshlarining ekologik madaniyatini oshirishga qaratilgan loyihalar amalga oshirildi.

2022-yildan boshlab Jizzax viloyatida Ekoharakat tomonidan Jahon yovvoyi tabiat fondi (WWF) loyihasi bo'yicha ishlamoqda. Loyihada archali o'rmonzorlarni tiklash, grek yong'og'ining qimmatbaho turlarini asrash va qator muhim endemik o'simliklarni saqlash va qayta tiklash nazarda tutilgan.

Qilinajak ishlar hali ko'p

O'tgan o'n besh yil ko'plab masalalarga yangicha yechimlar izlash, hamkorlar safi-ni kengaytirish, milliy va xalqaro miqyosda atrof-muhitni muhofaza qilish hamda aholi salomatligi muammolariga yechim topishda samarali ishtirok etishga imkon beradigan tajribalaridan foydalangan holda ekologiya faollari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish davri bo'ldi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning lavozimga kirishishiga bag'ishlangan marosimda nutqida ekologik muammolarni hal etish, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida ham amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar alohida tilga olinib, "yashil iqtisodiyot", "yashil energiya" tamoyillarini keng joriy etish, suv resurslari tanqisligini oldini olish zarurligiga e'tibor qaratildi.

So'nggi yillarda yurtimizda ekologik xavfsizlikni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlariga qarshi kurashish va uning ta'sirini yumshatish borasida ijobiy o'zgarishlarga erishilmoqda.

Barqaror rivojlanishning yangi talblaridan kelib chiqqan holda ekologik vaziyatni yaxshilash, jumladan, o'simlik va hayvonot olami-ni himoya qilish hamda asrash bo'yicha yangi yondashuv asosida islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ekologik masalalarga bo'lgan munosabat tubdan o'zgarib, uni boshqarish va tartibga soluvchi qonunchilik bazasi takomillashtirilmoqda. Yangicha ekologik tafakkur, ekologik dunyoqarash shakllanib, aholining ekologik madaniyati yuksalmoqda.

Orolbo'y hududlarida ekologik vaziyatni barqarorlashtirishga qaratilgan tub islohotlar jadal tus olgan. So'nggi 6 yil ichida Orol dengizining quirigan tubida 1 million 800 ming gektar maydonda o'rmonlashtirish ishlari olib borildi. Bugun dengizning quirigan tubida yashil qoplamalar paydo bo'ldi.

Shuningdek, O'zbekistonning yangilangan Konstitutsiyasida Orolbo'y mintaqasi-ni ekologik tizimini muhofaza qilish hamda tiklash, mintaqani ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan rivojlantirish yuzasidan davlat tomonidan choralar ko'rilihi alohida belgilab qo'yildi. Bu esa so'nggi yillarda Orolbo'y hududida amalga oshirilayotgan keng ko'lami amaliy ishlarni izchil davom ettirishni huquqiy jihatdan mustahkamlaydi.

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan takliflarning ro'yogba chiqarilishi mamlakatimizning yanada taraqqiy etishi, xalqimiz farovonligini ta'minlash, tinchlik va barqarorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shundan kelib chiqib, Ekoharakat quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratishni maqsad qilgan:

— muqobil energiya bo'lmish vorodroddan foydalanish texnologiyasini hayotga joriy etish bo'yicha ilmiy tadqiqot va amaliy ishlarni jadal-lashtirish;

— mamlakatdagi suv resurslari kadastrini hamda suv boshqarishning mukammal va barqaror strategiyasini ishlab chiqish ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

— "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlarni chuqur tahlil qilish, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni bartaraf etish;

— agrar sohada ekologik toza va resurste-jamkor innovatsion agrobiotexnologiyalarni qo'llash yuzasidan takliflar tayyorlash;

— Orolbo'y hududlarini kompleks ijti-moiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan qonunchilik hujjatlari kuchi ustidan jamoatchilik nazoratini davom ettirish.

Shuningdek, aholining ekologik madaniyatini yuksaltirish, yoshlarga ekologik ta'lim-tarbiya berishning mukammal huquqiy asoslarini ishlab chiqishda qatnashish, atrof-muhitni muhofaza qilish, iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish masalalari bo'yicha davlat, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati boshqa institutlari bilan hamkorlikdagi ishlarni jadallashtirish, mavsumiy ekologik muammolar, jumladan, xazon, bug'doydan bo'shagan yerda somon yoqilishining oldini olish, bartaraf etish bo'yicha tizimli ishlarni amalga oshirish, hududga xos ekologik muammolar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlashni kengaytirish, "yashil" energetika, "aqil" qishloq xo'jaligi tamoyillarini tatbiq etishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va joriy etishga ko'maklashish ham e'tiborimiz markazida bo'ladi.

Ekoharakat va uning ko'p ming sonli faollari bundan keyin ham ana shu ezuq maqsadlar yo'lida mamlakatimizda ekologik barqarorlikni ta'minlash borasida kuchi-g'ayratlarini ayamaydi.

BUGUNNING GAPI

MA'NAVIVY TARAQQIYOT

HAYOTIMIZGA YANGICHA RUH VA MAZMUN BAG'ISHLAYDI



Minhojiddin MIRZO,
Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi rahbari

 Boshlanishi 1-betda

Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichiga qadam qo'ydi. **"Yangi O'zbekiston orzusi"**, **"Uchinchi Renessans poydevorini yaratish"** ham yuksak ilmiy-ma'naviy mo'ljal, ham strategik maqsadga aylandi.

Prezidentimizning shiddatli islohotchilik siyosati nafaqat O'zbekistonda milliy yuksalish bosqichiga olib chiqdi, balki Markaziy Osiyoda yangicha munosabatlar shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Xo'sh, ushbu jarayonda ma'naviyatning hayotimizdagi o'rni qanday bo'lishi kerak? Bu savolga ham davlatimiz rahbari **"Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi"** kitobida javob bergan: **"Biz uchun ma'naviyat-insonlar o'rtasidagi o'zaro ishonch, hurmat va e'tibor, xalq va davlat kelajagini birgalikda qurish yo'lidagi ezgu intilishlar, ibratli fazilatlar majmuasidir. Boshqacha aytganda, ma'naviyat-jamiyatdagi barcha siyosiy-ijtimoiy munosabatlarning mazmuni va sifatini belgilaydigan poydevordir. Bu poydevor qancha kuchli bo'lsa, xalq ham, davlat ham shuncha kuchli bo'ladi"**.

Ana shu asosda o'tgan qisqa davrda mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni takomillashtirish maqsadida bu boradagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan 13 ta normativ-huquqiy hujjat va konseptual hujjat tayyorlandi. Xususan, O'zbekiston Prezidentining 1 ta farmoni, 4 ta qarori, 1 ta farmoyishi, shuningdek, Vazirlar Mahkamasining 3 ta qarori, 4 ta farmoyishi qabul qilindi. Shu asosda ma'naviy-ma'rifiy ishlarining tizimligini va uzluksizligini ta'minlash uchun zarur shart-sharoitlari yaratildi.

2021-yil 19-yanvarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishida uning asosiy faoliyat yo'nalishlari, vazifalari belgilab berildi. Markazning ma'naviy-ma'rifiy sohani muvofiqlashtiruvchi maqomi mustahkamlandi.

Shu asosda barcha vazirlik va idoralarda Ma'naviyat va ma'rifat kengashlari tashkil etildi. Vazirlik, idora va tashkilotlar tomonidan har yili ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"lari ishlab chiqish va amalga oshirish tizimi joriy qilindi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashini tashkil etish va boshqarish tartibi tubdan o'zgartirildi. Kengashga O'zbekiston Prezidenti, hududiy kengashlarga mahalliy hokimlar raislik qilishi belgilandi. Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jam'ar-masi, "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati va Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar instituti tashkil etilib, tizimning ilmiy-ma'rifiy va moddiy asoslari mustahkamlandi.

Boy ma'naviy merosimiz, milliy-axloqiy qadriyatlarimizni keng targ'ib qilish, aholiga yangi O'zbekiston nafasi, islohotlar mazmun-mohiyatini xolis, izchil va ishonchli yetkazib borish maqsadida "Oyina.uz" elektron portali faoliyati yo'lga qo'yildi. Shuningdek, "Tafakkur", "Ma'naviy hayot" jurnallari hamda "Ma'naviyat" nashriyoti markaz tasarrufida o'tkazildi.

Mamlakatimizning barcha hududlari, jumladan, tuman va shaharlarida ma'naviyat va ma'rifat maskanlarini bosqichma-bosqich qurish va foydalanishga topshirish ishlari olib borilmoqda.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirish, yuksak ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirish borasida fidokorona mehnat qilgan va samarali natijalarga erishgan fuqarolarni rag'batlantirish maqsadida "Ma'naviyat fidoyisi" ko'krak nishoni ta'sis etildi.

Davlatimiz rahbarining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobi beshinchi bo'limi "Ma'naviy taraqqiyot"ga bag'ishlangan. Unda "Ma'naviy yangilanish: imkoniyat va istiqbol", "Yangi ma'naviy makonni yaratish borasidagi vazifalar", "Ma'rifiy islohotlar va barkamol inson tarbiyasi", "Yangi O'zbekiston va ma'naviy yangilanish", "Ma'rifati jamiyat sari", "Milliy va umuminsoniy qadriyatlar uyg'unligi" mavzularida mavjud voqelik chuqur tahlil qilingan holda bu boradagi eng ustuvor vazifalar belgilab berildi.

Bugungi kunda dunyoda sodir bo'layotgan voqea va hodisalar bir haqiqatni yanada yaqqolroq namoyon etmoqda: mamlakatni iqtisodiy jihatdan rivojlantirish, ijtimoiy ta'minot darajasini yaxshilash, jismoniy jihatdan barkamol insonni tarbiyalash bilangina kuchli

taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Ma'naviy-axloqiy bo'shliqqa yo'l qo'yilgan makonlarda iqtisodiyot, harbiy salohiyat ming bora qudrat kasb etmasin, milliy-ma'naviy birlikning yo'qligi manaman degan iqtisodiy cho'qqilarning ham nurashiga olib kelishi mumkin. Shu ma'noda, mafkuraviy kurashlar goh oshkora, goh pinhona tus olgan, inson ongi va qalbi uchun kurashlar keskinlashgan tahlikali zamonada ma'naviy tarbiya masalasi hayot-mamot masalasiga aylanmoqda.

Dunyoning turli mintaq va davlatlarida sodir bo'layotgan ayanchli voqealar tahlili ko'rsatmoqdaki, ommaviy axborot vositalari, zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan, internet, ijtimoiy tarmoqlar va elektron nashrlar ko'p hollarda ayrim buzg'unchi kuchlar qo'lida turli soxta, zararli g'oya va mafkuralarni targ'ib etishning qulay va tezkor vositasiga aylanib qolmoqda. Bu kabi tahdidlar milliy va umuminsoniy qadriyatlar yemirilishiga, zo'ravonlik,



inson taqdiri, jamiyat hayotiga bepisandlik, mas'uliyatsizlik, loqaydlik, andashsizlik, behayolik kabi illatlar ildiz o'tishiga, odamzodning o'z tarixiy, diniy, milliy-ma'naviy ildizlaridan uzilib qolishiga sabab bo'lmoqda va jahonda gi ko'plab davlatlarda umumiy tendensiyaga aylanib bormoqda. Bunday murakkab sharoitda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni asrash — mustaqillikni asrashdek, mustahkamlashdek, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdek muhim.

Binobarin, jamiyat a'zolarini eng go'zal fazilatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy vatanparvarlik, milliy burch, Vatanga mas'ullik ruhida tarbiyalash orqali erishilgan ma'naviy taraqqiyot davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini kompleks rivojlantirish, mamlakat ahliga bunyodkorlik va yaratuvchanlik ruhini baxsh etishda ma'naviy drayver vazifasini o'taydi.

Davr talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi o'z faoliyatini tubdan tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqib, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi eskirgan yondashuvlar, samarasiz usul va vositalardan voz kechgan holda yangicha aniq maqsadga yo'naltirilgan zamonaviy targ'ibot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Albatta, raqamli makonda yanada faollashish, mavjud tahdidlar, noxolis axborot xurujlarga qarshi munosib javob berish soha xodimlarining bu boradagi bilim va malakalarini muntazam oshirib borishni talab qiladi.

Shu maqsadda joriy yil 17-21-iyul kunlari Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida markazning Qoraqalpog'iston Respublikasi, Viloyatlar va Toshkent shahri bo'limlari hamda tuman/shahar bo'linmalarining 250 nafardan ortiq mas'ul rahbar-xodimi ishtirokida "Ma'rifiy targ'ibot ishlari samarasi va ta'sirchanligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar" mavzusida o'quv seminarini tashkil etildi.

Unda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Saylovoldi dasturida iqtisodiy ma'naviyat-ma'rifiy tashabbuslar, vatanparvarlik va yoshlar tarbiyasi masalalari", "Respublikada olib borilayotgan ma'naviy-marifiy ishlarning holati hamda hududiy Ma'naviyat va ma'rifat kengashi rahbarlarining Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashi oldida hisobot berishi tizimini yo'lga qo'yish", "Ma'rifiy targ'ibot ishlari samarasi va ta'sirchanligini yanada oshirish bo'yicha ustuvor vazifalar: muammo va takliflar" va boshqa qator mavzularda ma'rualar tinglanib, amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi. Ishtirokchilar bilan O'zbekiston Prezidenti maslahatchisining birinchi o'rinbosari, siyosiy fanlar doktori, professor Q.Quronboyev ishtirokida davra suhbatini tashkil etildi. Unda davlatimiz rahbarining ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash borasidagi topshiriqlari ijrosi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Shuningdek, seminar ishtirokchilari Ma'naviyat va ma'rifati, targ'ibot ishlari yo'nalishidagi kadrlar faoliyati samaradorligini baholash indikatorlari (KPI) hamda barcha darajadagi xodimlar uchun aniq malaka talablarini ishlab

chiqish va mahallalar kesimida uyushmagan yoshlar o'rtasida ma'rifiy targ'ibot ishlarni tashkil etishning qulay, zamonaviy va ta'sirchan usullarini ishlab chiqish bo'yicha muhokamalar tashkil qilindi.

To'rt kun davom etgan tadbirda taniqli olimlar, yozuvchilar, professor-o'qituvchilar tomonidan ishtirokchilarning aholi o'rtasida sotsiologik so'rovnomalarni o'tkazish, natijalarini olish va tahlil qilish, shu asosda ijtimoiy-ma'naviy muhitni tashxislash bo'yicha bilimni mustahkamlashga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari o'tkazildi.

— Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida o'tkazilgan o'quv seminarida nihoyatda muhim masalalar muhokama qilindi, — deydi "Ma'rifati" targ'ibotchilar jamiyati a'zosi, falsafa fanlari doktori Jamila Shermuhamedova. — Unda ta'kidlanganidek, bugun ma'rifati targ'ibotchisining imiji, obro'-e'tibori, eng muhimi, ilmiy salohiyati kuchli va ta'sirli bo'lishi shart. Shu

nuqtayi nazardan, to'rt kunlik o'quv seminarida barcha tinglovchilar bugungi yangi zamon talablariga mos interfaol, kreativ, motivatsion texnologiyadan foydalanish mexanizmlarini o'rganishdi.

Seminar doirasida Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi, Yoshlar ishlari agentligi, Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi o'rtasida har bir mahallada ma'naviy-ma'rifiy ishlarni rivojlantirish, xotin-qizlar faoli va yoshlar yetakchisi faoliyatini kuchaytirishga ko'maklashish bo'yicha **qo'shma qaror**, vazirlik va idoralar, tashkilot va muassasalarda **"ma'naviyat xonasi"**ni tashkil etish bo'yicha yo'riqnomaga, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlari namunali ish tajribasi bo'yicha dastur loyihalari ishlab chiqilib, ularni samarali amaliyotga joriy etish masalalari muhokama qilindi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi Farg'ona viloyati bo'limi rahbari Ma'sudjon Sulaymonov esa seminardagi dolzarb mavzular, rang-barang mashg'ulotlar, taqdimotlar bo'yicha o'z taassurotlarini bildirdi:

— Eng muhimi, har bir mashg'ulot rasmiyatchilikdan xoli o'zaro muloqot, bahs-munozara shaklida tashkil etildi. O'ziga xos tarzdagi seminar ma'naviyatchilar uchun muloqot maydoni, bilim, malakani o'zlashtirish, ilg'or tajribalarni o'rtoqlashish, hududlararo hamkorlikni yo'lga qo'yishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Har birimizga yuksak faollik baxsh etdi.

— Respublika seminari tizim xodimlari uchun juda manfaatli, foydali bo'ldi. Eng asosiysi, mamlakatimizda Ma'naviyat va ma'rifati markazining hududiy bo'lim va bo'linmalari rahbarlari yagona "ma'naviyat oilasi"da ekanini, ma'naviy birligini, har bir masalada hamjihat faoliyat ko'rsatish turli noxolis axborotlarga qarshi turishda katta kuchligini his etdilar, — deydi markazning anjumanda ishtirok etgan Elikkaf'ala tumani bo'linmasi rahbari Oysha Matniyozova.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi hududiy bo'limlari, tuman va shahar bo'linmalari rahbarlari, "Ma'rifati" targ'ibotchilar jamiyatining eng faol a'zolari ishtirokidagi ilk seminar amaliy taklif va tashabbuslar, qizg'in bahs va munozaralar asosida nihoyatda ishchanlik ruhida o'tdi. Sohaning har bir xodimi nafaqat oldida turgan vazifalarning muhimligini angladi, shu bilan birga, Vatan taraqqiyoti, kelajak avlod oldidagi yuksak mas'uliyatni his qildi.

Seminar yakunida **"Respublika Ma'naviyat va ma'rifati markazi tizimi jamoasi va bir guruh ma'rifati targ'ibotchilarining mamlakat aholisiga murojaati"** qabul qilindi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Ma'naviyat — bamiisoli bir bayroq". Ma'naviyat ezigulik, mehr-muhabbat, oqibat, tarbiya, odamiylik va yuksak vatanparvarlik bayrog'idir. Ushbu bayroqni baland ko'tarib, millatimiz va xalqimizni ezigulik va bunyodkorlik yo'lidagi birlashtirishdagi sharafli mas'uliyatni seminar ishtirokchilarining barchasi yurakdan his qilidilar.

RESPUBLIKA MA'NAVIVAT VA MA'RIFAT

MARKAZI FAOLLARI VA BIR GURUH MA'RIFAT TARG'IBOTCHILARINING O'ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATI

 Boshlanishi 1-betda

Hech qachon unutmaylik, farzandlarimizning ertaga kim bo'lib yetishi bugun ularga oilada qanday tarbiya berayotganimiz, ularning qalbini, ongini nima bilan to'ldirayotganimizga bog'liq. Agar o'g'il-qizlarimizni hozirdan boshlab ilmga, hunarga, mehnatga, odob va madaniyatga o'rgatsak, ularning ko'ngliga ona yurtga muhabbat va sadoqat hissini, yuksak insoniy tuyg'ularni singdirsak, avlodlar kelajagi baxtli bo'lishiga mustahkam poydevor qurgan bo'lamiz. Mabodo beparvolik bilan ularning tarbiyasini o'z holiga tashlab qo'ysak, qalbini, ongini mobil aloqa va Internet vositalaridagi turli zararli va bo'lmag'ur "virus"larga yem qilib bersak, kelajagimizni, farzandlarimiz hayotini o'z qo'limiz bilan barbot qilgan bo'lamiz.

Farzandlarimiz nimalar bilan shug'ullanayotganiga, kimlar bilan do'st bo'lib, muloqot qilayotganiga hech qachon befarq qaramaylik. Qanchalik qiyin bo'lsa ham, ularning ijtimoiy tarmoqlarda nimalar bilan shug'ullanayotganini kuzatib boraylik, ushbu makon ular uchun halokat emas, saodat manbai bo'lib xizmat qilishi uchun zarur choralarni izlab topaylik. Inson o'z bolasi-ni baxti, kelajagi uchun nimalar qilmaydi? Lekin faqat taqiqlash, jazolash bilan emas, ta'sirchan tarbiya usullari, aql va bilim bilan, bog'cha, maktab, oliygoh, mahalla jamoatchiligi, huquq-tartibot idoralari xodimlari, diniy ulamolar bilan birgalikda ish olib borsak, albatta, ijobiy natija bo'ladi.

Farzandlarimizni mehnatga, ilmga, hunarga o'rgatish, ularni o'zaro yordam, hashar, saxovat va muruvvat kabi qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalash, atrof-muhitni muhofaza qilish, ona tabiatni sevish va asrash, uni kelajak avlodlarga bezavol yetkazish ota-onasi sifatida barchamizning burchimiz ekanini unutmaylik!

Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, **"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi"**. Yuksak ma'naviy kamolotga uzluksiz ta'lim va tarbiya uyg'unligi orqali erishiladi. Oiladagi tarbiya, jamiyatdagi yurish-turish, muomala madaniyati, salomlashish va kiyinish odobi, insoniy fazilatlarni namoyon etishda farzandlarimizga avvalo, o'zimiz o'mak bo'laylik.

Farzandlarimizda, ayniqsa, bolaligidan boshlab kitobga mehr uyg'otish o'ta muhimdir. Buning uchun xonadonlarimizda mo'jaz kutubxonalar tashkil etib, ular bilan birga kino va teatrlarga, muzeylarga, qadimiy shaharlarimiz bo'ylab sayohatlarga borib farzandlarimiz qalbiga ezgu hislarni singdiraylik. O'g'il-qizlar bilan samimiy, do'stona suhbatlashib, qiziqish va intilishlarini rivojlantirishga, ma'naviy va ruhiy olamini shakllantirishga e'tibor beraylik. Bugun farzandlarimizga ajratgan vaqtimiz, mehmrimiz va e'tiborimiz ertaga oilamiz va jamiyatimizga hech narsa bilan o'chib, baholab bo'lmaydigan insoniy resurs va kapital bo'lib qaytadi.

Qadrlil ziyolilar, hurmatli ustozlar!

Sizlar — jamiyatning eng ilg'or, bilimlil va ma'rifatlil qatlamini tashkil etasiz.

Sizlar Vatan va xalq oldidagi fuqarolik burchingiz va vazifangizni boshqalardan ko'ra chuqurroq anglab, o'z ilm va tafakkuringiz, madaniyatingiz, ma'naviy-ruhiy saviyangiz bilan millionlab yurtdoshlarimizga o'mak bo'lasiz.

Shu bois, sizlarning so'zingiz odamlar qalbiga tezroq yetib boradi, ibratli ishlaringiz el-yurt o'rtasida namuna bo'ladi.

Yangi O'zbekistonda yangi madaniy va ma'naviy makon yaratish, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlodimiz ongini, dunyoqarashini islohotlarimiz jarayonida ilgari surilayotgan zamonaviy g'oyalar asosida shakllantirishda sizlarning o'rmingiz va ta'siringiz beqiyosdir.

El-yurtimiz sizlardan bugungi davrning butun qarama-qarshilik va ziddiyatlari, ularni hal etish yo'li-lari haqqoniy ochib berilgan, zamondoshlarimizning ma'naviy-ruhiy qiyofasi ta'sirchan aks ettirilgan ilmiy va badiiy asarlar, musiqliq, tasviriy polotnolar, zamonaviy innovatsion g'oyalar, pedagogik texnologiyalarni hayotga joriy etish bo'yicha amaliy-metodik ishlarni yaratishingizni kutmoqda.

Hozirgi vaqtda mediamakonda **madaniyatsizlik, axloqsizlik** ko'rinishlari bilib-bilmay targ'ib etilayotgan bir paytda ularni qalbi barchamiz birlashaylik, xalqimizga bunday ma'naviy tahdidlar ortida qanday g'arazli maqsadlar yashiringani, ular qanday og'ir va achchiq oqibatlarga olib kelishini tushuntiraylik.

"Demokratiya", "fikr erkinligi", "ochiqlik" tamoyillarini niqob qilib, xalqimiz ming yillar davomida ko'z qorachig'idek asrab kelgan qadriyatlarimizni buzishga, hayotimizni ichidan qo'porishga aslo yo'l qo'ymaylik.

Ziyolilar davlat va xalq o'rtasidagi munosabatlarni yanada mustahkamlashda o'ziga xos ko'prikdir. Olib borayotgan targ'ibot ishlarimiz yurtdoshlarimiz, avvalo, yoshlarimizda yuksak vatanparvarlik, milliy birlik, g'urur va iftixor tuyg'ularini uyg'otishga yanada samarali xizmat qilsin.

Bu borada eskirgan, zerikarli va samarasiz usullardan voz kechib, har bir uchrashuv va muloqotni ta'sirchan, noan'anaviy va aniq natijaga xizmat qiladigan yangicha usullar asosida o'tkazishga harakat qilaylik!

Xalqaro Internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborotlar, hayotimiz

ziynati bo'lgan odob-axloqimiz, ma'naviyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatadigan buzg'unchi aksiyalar, yoshlarni zalolatga boshlaydigan jirkanch tasvir va media mahsulotlar mohiyatini keskin fosh etib, oqni — oq, qorani — qora, deb, asl haqiqatning kuchini el-yurtimizga biz ko'rsatmasak, o'zingiz aytib, kim ko'rsatadi?!

Biz shu yo'lda barchangizni yanada faol bo'lishga chaqiramiz. Hech qachon unutmaylik, ma'naviy kurashlar sohasida ham faqat va faqat buyuk azmu shijoat bilan dadil harakat qilgan, oldinga qarab borgan jamiyatgina maqsadiga yetadi.

Hurmatli tadbirkor va ishbilarmonlar!

Tadbirkorlar hamisha, hamma zamonlarda bunyodkor, yaratuvchi, saxovatpesha kuch bo'lish bilan birga, ma'naviyat, madaniyat maydoni pahlavonlari sifatida ham faoliyat ko'rsatganlar. Arzimgan, o'tkinchi, shaxsiy foydasinigina ko'zlab, millatning ma'naviy ildizlariga bolta uradigan mahsulotlarni hech qachon yurtimizga keltirmaganlar. Tijorat bobida harom-xarish yo'llardan yurma-ganlar, o'zgalarning haqiga aslo xiyonat qilmaganlar. Har bir ishni insof, diyonat, halollik, rozi-riazolik asosida olib borganlar. Bugun biz sizning timsolingizda ana shunday vijdoni pok, Vataniga, xalqiga sodiq yangi O'zbekiston bunyodkorlarini ko'ramiz.

Xalqimiz doimo izlanib, yangilikka intilib yashaydigan jonkuyar tadbirkorlarni o'z ishiga fidoyi va vatanparvar insonlar deb biladi va qadrlaydi.

Bugungi kunda hayotimizda **"tadbirkor ma'naviyati"** degan tushuncha paydo bo'lmoqda. Aynan ma'naviyat mezonlariga amal qilgan tadbirkorlarimiz el-yurtimizning ezgu duolariga sazovor bo'lmoqda.

Ishonchimiz komil, sizlar xalqimizning ana shunday yuksak bahosiga doimo munosib bo'lib, jamiyatimiz hayotiga yangi ma'naviy nafas olib kirasiz, azdalan poklik, insof va diyonat muvofiqariga asoslangan o'zbek savdogarlari, tijorat ahli an'analarni munosib davom ettirib, yanada yuksak bosqichga ko'tarasiz.

Muhtaram mahalla faollari!

Mahalla qadim-qadimdan tinchlik va osoyishtalik, ahillik va hamjihatlik, ma'rifati va tarbiya maskani bo'lib kelgan. U biz uchun Vatan ichra kichik Vatandir!

Bugungi kunda mahalla odamlar o'rtasida mehnatqibat bardavomligini ta'minlaydigan, milliy qadriyatlarimizni mustahkamlaydigan noyob tuzilmaga, chinakam xalq vijdoniga aylanib borayotgani, albatta, barchamizni quvontiradi.

Ayni paytda bugungi shiddatli zamon mahalla tizimi oldiga ham dolzarb vazifalarni qo'ymoqda. Ana shunday murakkab sharoitda ezgu qadriyatlarimiz asosida yanada birlashib, mahallalarimizni turli illatlar, ma'naviy tahdidlardan xoli ulug' fazilatlar makoniga aylantiraylik.

Bugun har bir mahallada ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarga mas'ul shaxslar belgilangan. Bu borada kamar-basta bo'layotgan nuroniy o'taxon va onaxonlarimiz safi tobora kengayib bormoqda. Ularning hayotiy bilim va tajribasi, oltinga teng o'g'itlari, yuksak ijtimoiy nu-fuzidan oliyaviy qadriyatlarni mustahkamlashda keng foydalanaylik.

Xalqimiz donishmandligining yuksak namunasi bo'lgan **"Bir bolaga yetti mahalla — ota-ona"** degan naqlga tayyangan holda, mahalladagi har bir bolaning tarbiyasi uchun o'zimizni mas'ul deb bilaylik!

Aziz yoshlarimiz!

El-yurtimiz yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishda butun xalqimiz qatori sizlarga tayanadi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonidan yaratib berilayotgan qulay sharoit va imkoniyatlardan unumli foydalaning.

Mamlakatimiz kelajagi sizlarning qo'lingizda. Yangi O'zbekistonda kelgusida aynan sizlar dunyoga tanitasiz. **Bunga doimo munosib bo'ling!**

Yoshlikka xos qat'iyat, g'ayrat va shijoat, jo'shqinlik va mardlikni, hushyorlik va tadbirkorlik, ezgu orzu-intilishlarni amaliy harakatga aylantirib, salmoqli natijalarga erishish uchun o'z oldingizga aniq maqsadlar qo'yib yashashdan aslo charchamay.

Vatanni sevish, xalqimizga sadoqat bilan, zahiriddin Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Xiziriddin Muhammad Bobur, ma'rifatparvar jadid bobolarimizning shonli an'analarni ardoqlab, ularni munosib davom ettiring.

Ta'lim-tarbiya, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni o'rganishda, zamonaviy kasb-hunarlar, raqamli iqtisodiyot ko'nikmalarini puxta egallashda, jahon maydonidagi raqobatda xorijdagi tengdoshlaringizdan aslo kam emasligingizni amalda isbotlang. Siz bunga har tomonlama qodirsiz.

Buzg'unchi g'oyalar, vayronkor mafkuralar tuzog'idan doimo ogoh bo'ling!

Hech qachon unutmang, Siz — xalqimizning umid va ishonch bilan ko'z tikkan kelajak bunyodkorlarisiz.

Aziz vatandoshlar! Bugungi kunda xalqimizni buyuk maqsadlar sari dadil boshlab borayotgan azmu shijoatli Prezidentimiz atrofida, muqaddas Vatanimiz bayrog'i ostida qudratli xalq bo'lib yanada jipslashaylik. Birgalikda ulkan marralarni zabt etaylik. Ma'rifati va farovon jamiyat qurishdek ulug' maqsad yo'lidagi aslo charchamaylik. Yangi O'zbekistonda barpo etish har birimizning muqaddas maqsadimizga aylansin!



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



YANGICHA YONDASHUVLAR

XALQARO TALABGA MOSLASHUV

Standartlashtirish — raqobatda yutishning birlamchi sharti

Azizbek HAMDAMOV,
O'zbekiston standartlar
instituti direktori

Boshlanishi 1-betda

Mahsulot ishlab chiqarishning aniq me'yori, tartib-qoidasi bo'ladi, ularga amal qilinishi ham ishlab chiqaruvchi, ham xaridor uchun zarur. Chunki bu mahsulot si-fati, shu bilan birga, xaridor ishonchini qo-zonishning muhim shartidir.

Iqtisodiyot, ishlab chiqarish, savdo-sotiq rivojlanishida texnik jihatdan tartibga solish dolzarb masala. Shu ma'noda Preziden-timiz tomonidan 2023-yil 27-fevralda imzolangan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonunning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati katta.

Mazkur qonun kuchga kirishi bilan "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risi-da"gi, "Muvofiglikni baholash to'g'risida"gi va "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikat-lashtirish to'g'risida"gi qonunlar o'z kuchini yo'qotadi.

Shu o'rinda tabiiy savol tug'iladi: xo'sh, nima sababdan sohaga yangi qonun kerak bo'lib qoldi? Bugungi kunda mamlakatimiz-da har bir sohada yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida tarixiy yangilanishlar jarayoni kechayapti. Iqtisodiyotimiz barqaror rivojlanishini ta'minlash maqsadida katta islohotlar, ulkan bunyodkorlik ishlari amal-ga oshirilmoqda. Pirovardida, korxonalari-mizning eksport salohiyati yuksalib, aholi-ning sifatlari va xavfsiz mahsulotlarga talabi oshmoqda.

Lekin sohani tartibga soluvchi "Texnik jihatdan tartibga solish to'g'risida"gi qonun 2009-yilda, "Muvofiglikni baholash to'g'risi-da"gi qonun 2013-yilda, "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"-gi qonun esa 1993-yilda qabul qilingan. Tabiiyki, mazkur qonunlar bugungi kun ta-blalariga javob bera olmaydi.

Prezidentimizning 2021-yil 2-iyundagi "Texnik jihatdan tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi farmoni esa sohani rivoj-lantirishda yangi bosqichni boshlab berdi.

Farmonda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, amaldagi qonunlarni tartibga solish sohasini o'zida jamlagan va bugungi kun talablariga to'liq javob bera oladigan, yuksalib borayotgan iqtisodiyotimiz uchun tegishli huquqiy makon yaratishga xizmat qiladigan yangi qonun ishlab chiqildi.

Avvalo, ushbu qonun mahsulotlar xavf-sizligini xalqaro talablar bilan uyg'unlash-tirish, ishlab chiqaruvchilar, sotuvchilar va import qiluvchilarning sifatsiz ishlab chiqarilgan mahsuloti uchun javobgarlik dara-jasini oshirish, bozorda xavfli mahsulotlar realizatsiyasining oldini olishga qaratilgan davlat nazoratini kuchaytirish, mahalliy mahsulotlar sifati va raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Yangi qonun amaldagi xalqaro talablar,



SOHANI TARTIBGA SOLUVCHI "TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA SOLISH TO'G'RSIDA"GI QONUN 2009-YILDA, "MUVOFIQLIKNI BAHOLASH TO'G'RSIDA"GI QONUN 2013-YILDA, "MAHSULOTLAR VA XIZMATLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH TO'G'RSIDA"GI QONUN ESA 1993-YILDA QABUL QILINGAN. TABIIYKI, MAZKUR QONUNLAR BUGUNGI KUN TALABLARIGA JAVOB BERA OLMAYDI.

jumladan, Yevropa Ittifoqi hamda Jahon savdo tashkilotiga a'zo davlatlar tajribasi asosida ishlab chiqilgan. Mazkur davlatlar qonunchiligida muvofiglikni baholash soha-si texnik jihatdan tartibga solish tizimining asosiy qismi bo'lib, tegishli normalar bitta qonunda umumlashtirilgan.

Misol uchun, Yevropa Ittifoqi mamlakat-larida texnik jihatdan tartibga solish tizimi hozirgi kunda xalqaro hamkorlik va mu-vofiglikni baholash natijalarini ta'minlash-ning samarali modeli sifatida qaralmoqda. Chunki u dastlab, yagona iqtisodiy ma-kon shakllantirish uchun yaratilgan. Yangi qonun normalarining maqsadi aynan xalqa-ro savdo-sotiqni rivojlantirish va ichki bozor-ni bugungi zamon talablaridan kelib chiqib tartibga solish hisoblanadi.

Qonunda iste'molchilarni sifatsiz mahsu-lotlardan himoya qilish texnik reglamentlarni ishlab chiqishning asosiy maqsadlari sifati-da belgilangan bo'lib, mahsulot xavfsizligi talablarini belgilash orqali fuqarolarning ha-yoti yoki sog'lig'ini, atrof-muhitni, hayvonot va o'simlik dunyosini muhofaza qilish ham-da xaridorlarni chalg'itadigan harakatlar-ni oldini olish nazarda tutilgan.

Mahsulotning xavfli darajasi uning jamoat manfaatlariga yetkazishi mumkin bo'lgan xavf (tahdid) darajasi hisoblanadi.

Misol uchun, yuqori darajadagi xavf deb davlat organlarining tekzor aralashuvini talab qiladigan, jamoatchilik manfaatlariga tahdid soladigan, shu jumladan, oqibatlari darhol namoyon bo'lmaydigan har qanday xavfga aytiladi. Qonunda muvofiglikni ba-

holash texnik reglamentlarning ajralmas qismi ekan qat'iy belgilanmoqda va mahsu-lot muvofigligini baholashda qo'llaniladigan shakli, tartib-taomillari ochib berilmoqda. Muvofiglikni baholash (sinovlar, o'lchovlar, muvofiglikni baholash va nazorat) davlat-ga o'z fuqarolarini xavfli va sifatsiz mah-sulotlarni iste'mol qilishdan himoyalashga imkon beradigan samarali vositadir.

Xavfsiz mahsulot muomalaga chiqa-rilishini ta'minlaydigan yana bir element texnik reglamentlar talablariga rioya etili-shi ustidan davlat nazorati amalga oshiri-lishidir. Davlat nazoratining "nazorat xaridi" shakli joriy etilishi ishlab chiqaruvchi hamda importyorni bozorga doimiy ravishda sifatl mahsulot chiqarishga undovchi omil bo'lib xizmat qiladi. Qonun bilan nazorat qiluvchi organlar o'rtasida bozorda muomalada bo'l-gan yuqori xavf darajasiga ega mahsulotlar to'g'risida o'zaro axborot almashish imkoni-ni beruvchi tizim yaratilishi belgilanmoqda. Bu ichki bozorni xavfli mahsulotlardan hi-moya qilishda muhim ahamiyatga ega.

Xavfli mahsulotlar uchun tekzor ogoh-lantirish tizimi ko'plab davlatlarda joriy qi-lingan bo'lib, bozorda bunday mahsulotlar tarqalishining oldini olish uchun samarali tartibga solish vositasidir. Misol uchun, Yev-ropa Ittifoqi davlatlari orasida "RAPEKS"

tekzor ravishda o'zaro xabar berish maxsus

XAVFLI MAHSULOTLAR UCHUN TEZKOR OGOHLANTIRISH TIZIMI KO'PLAB DAVLATLARDA JORIY QILINGAN BO'LIB, BOZORDA BUNDAY MAHSULOTLAR TARQALISHINING OLDINI OLISH UCHUN SAMARALI TARTIBGA SOLISH VOSITASIDIR. MISOL UCHUN, YEVROPA ITTIFOQI DAVLATLARI ORASIDA "RAPEKS" TEZKOR RAVISHDA O'ZARO XABAR BERISH MAXSUS TIZIMI AMAL QILADI. ENDI BIZDA HAM SHUNGA O'XSHASH SAMARALI TIZIM JORIY QILINADI.

tizimi amal qiladi. Endi bizda ham shunga o'xshash samarali tizim joriy qilinadi.

Savdo aloqalari kengayib, rivojlanib bo-rishi zamonamizning asosiy yutuqlaridan biridir. Lekin har bir davlatda mahsulot ish-lab chiqarish va bozorda muomalaga chiqa-rishning o'ziga xos milliy tartiblari bor va ular bir-biridan farq qiladi. Bugungi kunda xal-qaro hamjamiyatda savdo-sotiqdagi texnik to'siqlarni kamaytirishga yordam beradigan umumiy tamoyil va qoidalar mavjud.

Yangi qonun bilan nazarda tutilayot-gan o'zgarishlarning eng muhim jihati nor-malarning Jahon savdo tashkiloti talablari va xalqaro amaliyot tamoyillariga mu-vofiglashtirilayotganidir. Bu mamlakatimiz iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan jadal integrallashuviga xizmat qiladi. Zoro, qonun normalari Jahon savdo tashkilotining Sav-dodagi texnik to'siqlar to'g'risidagi bitimi ta-blalariga muvofiqdir.

Xususan, unda inson hayoti va sog'lig'i, xavfsizligini ta'minlash, atrof-muhit muho-fazasi, tabiiy resurslardan oqilona foydal-anilishini ta'minlash, savdodagi texnik to'-siqlarni bartaraf etish, iste'molchilar man-faatini ta'minlashga qaratilgan normalar texnik reglamentlarda belgilanishi va ular-ning hukumat tomonidan tasdiqlanishi kabi me'yorlar aks ettirildi.

Bu texnik reglamentlarning xalqaro (mintaqaviy) standartlar asosida ishlab chiqarilishini ta'minlaydi. Mahalliy ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarimiz xalqaro standartlar talabi asosida tayyorlansa va sinovdan o'tkazilsa, bu ularning eksport geografiasini kengayishiga zamin yaratadi. Savdodagi texnik to'siqlar minimal daraja-ga tushishi natijasida Yevropa bozorlari-ga eksport imkoniyatlarimiz kengayadi.

Yangi qonun bilan amalga tatbiq etilayot-gan tartiblar, umuman, yangilanish jarayoni tadbirkorlik subyektlariga qanday yengil-liklar yaratadi?

Qonunda davlat organlari huzurida tex-nik jihatdan tartibga solish sohasidagi eks-pert komissiyalari tuzilishi va ular texnik reglamentlar loyihalari, ularga doir o'zgar-tish va qo'shimchalarni ekspertizadan o'tkazishi, shuningdek, amaldagi texnik reglamentlarni bekor qilish bo'yicha taklif, xulosalar tayyorlashi belgilangan.

Ekspert komissiyalari faoliyatida man-faatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslikni ta'minlash maqsadida texnik reglament-lar ishlab chiqishda xususiy sektor fikrlari ham inobatga olingan. Ya'ni texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspert komi-siyasi tarkibiga davlat organlari va boshqa tashkilotlar vakillari bilan birga, iqtisodi-yotning tegishli tarmoqlaridagi tadbirkorlik subyektlarning vakillari kiritilishi shartligi mustahkamlab qo'yilgan.

Mahsulotni davlat ro'yxatidan o'tkazish, muvofiglikni deklaratsiyalash, ya'ni ishlab chiqaruvchi, ishlab chiqaruvchining vako-latli vakili, sotuvchi yoki import qiluvchi to-monidan o'z dalillari asosida mahsulotning muvofigligini baholash shakllari belgilan-di. Bu, o'z navbatida, tadbirkorlar uchun qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

Xalqaro amaliyotdan kelib chiqib, tex-nik reglament ishlab chiquvchilar bir vaqt-niing o'zida ularni ko'llash bo'yicha uslu-biy tavsiyalarni ishlab chiqishi, qoidalarni tushuntirishi belgilanmoqda. Bunday tar-tib tadbirkorlarning texnik reglamentlar ta-labi haqida o'z vaqtida tushunchaga ega bo'lish, ularni to'g'ri ko'llash imkoniyatla-rini kengaytiradi.

Muvofiglikni baholash texnik re-glamentlarning ajralmas qismi sifatida bel-gilanishi tadbirkorlik subyektlarini mahsulot muvofigligini baholashda ortiqcha vaqt sarf-lashdan asraydi.

Eng muhimi, ularni mahsulot muvofigli-gini baholash jarayonida korrupsiyaviy ho-latlar yuzaga kelishidan himoya qiladi.



INSON QADRI

Boshlanishi 1-betda

Aholini ish bilan ta'minlash haqida so'z borganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari yetakchi kuchga aylanayotganini alohida ta'kidlash joiz. Negaki, yaratilayotgan imtiyoz va imkoni-yatlardan unumli foydalanib, faoliyatini tobora rivojlantirayotgan tadbirkorlar safi yildan-yilga kengaymoqda. E'tiborlisi, ishbilarmonlarning asosiy qismi yoshlar bo'lib, ko'pchiligi xorijda ishlab kelgan.

Navoiyda ham aholi bandligini ta'min-lash dolzarb masalalardan. Viloyatda hokim yordamchilari tavsiyanomalari asosida 3,6 ming yigit-qizning biznes loyi-hasiga 92,9 milliard so'm imtiyozli kredit ajratildi. Shuningdek, ishsiz va "Yoshlar daftari"da ro'yxatda turuvchi 125 fuqaro-ga 573,7 million so'm subsidiya berildi. Ayniqsa, xorijdan qaytib kelgan va "O'z kelajagimiga o'zim investor" loyihasi aso-sida biznesini yo'lga qo'yg'an yurtdosh-larimiz uchun qator qulayliklar yaratilgan. Ularga samarali mehnat qilishi va faoliya-tini yanada kengaytirishi uchun imtiyozli bank kreditlari ajratilyapti.

Navoiy shahridagi Yangihayot mahal-lasida yashovchi Zebiniso Xo'jayeva uzoq yillar Janubiy Koreyada ishladi. Yurtga qa-tygach, istiqbolli loyihasini amalga oshirish



AHOLI BANDLIGI — farovonlik asosi

maqsadida mahalladagi hokim yordam-chisiga murojaat qildi. Uning tashabbusi mas'addilar tomonidan qo'llab-quvvatlan-di va Zebiniso tikuvchilik korxonasini ochib, hududdagi bir guruh ishsiz xotin-qizning bandligini ta'minladi.

— Tadbirkorlik faoliyatimni yo'lga qo'yish asosiy maqsadlarimdan biri edi va loyihamni amalga oshirish uchun biznes rejamni xori-jda ekanimdayoq tuzib qo'ygandim. To'g'ri-si, tadbirkorlikni boshlashdan avval bir oz cho'chidim, hujjatlar tayyorlash uchun rosa yugursam kerak, deb o'ylagandim. Ammo mahallamizdagi hokim yordamchisiga muro-jaat qilganimga menga zarur ko'mak berdi, imtiyozli kredit ajratilishiga yordamlashdi. Asosan, bolalar kiyimi ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydik. Faoliyatimiz barqaror davom etmoqda va daromadi ham yaxshi, — deydi yosh tadbirkor Zebiniso Xo'jayeva.

Navbahor tumanining Navkar mahallasi-da yashovchi 21 yoshli Ahror Maxamatqu-



lovga mas'addilar suv filtrlash uskunasi xarid qilishi uchun 33 million so'm imtiyozli kredit ajratilishiga yordam ko'rsatdi. Hozir u aholiga ekologik toza suv yetkazib berish bilan band.

Tumanda Ahror kabi ishbilarmon yoshlar ko'p. Sarbozor mahallasida yashovchi O't-kir Sanoqulov hokim yordamchisi ko'magi bilan bankdan imtiyozli kredit olib, novvoy-likni boshladi. Hozir mo'jazziga novvoyxo-nasida oilasi bilan mehnat qilib, daromad topmoqda.

Bashorat Umarova xorijda sartaroshlik sirlarini o'rgangan. O'zi yashaydigan Sarbo-zor mahallasida faoliyatini yakka tartibdagi tadbirkor sifatida davom ettirishni maqsad qilgandi. U faqat sartaroshlik bilan chek-lanib qolmay, bankdan imtiyozli kredit olib, yoshlar uchun sport klubi ham tashkil etdi va oila a'zolarining bandligini ta'minladi. Bu hali hammasi emas. U biznesini kengayti-rish bo'yicha katta orzular bilan yashayapti.

— Xorijdan qaytganimda tadbirkorlik faoliyatimni boshlash uchun biznes rejam tayyor edi. Faqat mablag' yetarli bo'lmagani uchun mahallamizdagi hokim yordamchisi-dan ko'mak so'radim va bankdan kredit olib ish boshladim. Hozir yoshlar uchun sport klubi ochganman. Bu yerda mahallamiz yoshlari maza qilib sport bilan shug'ullan-moqda. Yana bir necha tadbirkorlik turlarini boshlash arafasidamiz, — deydi Bashorat Umarova.

Bugun olis hududlarda yashovchi xo-tin-qizlarni ish bilan ta'minlash juda dol-zarb. Oila boshlig'i bilan birgalikda ayol-niing ham ishi bo'lishi, albatta, oila faro-vonligiga xizmat qiladi. Ayniqsa, Navoiy viloyatining olis hududlarida buning qadri yanada baland.

Uchquduq tumanida ham bu borada namunalilar amalga oshirilyapti. Vazir-lar Mahkamasi 2022-yil 31-martdagi "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal



etish tizimini yanada takomillashtirish cho-ra-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan, tumanda "Ayollar daftari"ga kiritilgan ehtiyojmand xotin-qizlarga ko'rsatilayotgan amaliy yordam tufayli ular muayyan ishga va maoshga ega bo'lmoqda.

Tumanda 30 yoshdan oshibgan ayollar-ning har biri bilan muloqot qilinib, 421 xo-tin-qiz 6 ta toifaga ajratildi. Ularning 122 nafari ijtimoiy himoyaga muhtoj ishsiz ishsiz ayolni mahalliy korxonalarga ish-ga joylashtirib, bandligini ta'minladik. 62 nafariga subsidiya asosida turli mehnat jihozlari olib berildi va ular o'z-o'zini ish bilan band qildi. 21 nafariga bankdan kredit ajratilib, tadbirkorlik faoliyatini yo'l-ga qo'yishi uchun ko'maklashildi. Boquv-chisini yo'qotgan 135 xotin-qiz, ijtimoiy yordamga muhtoj, nogironligi bo'lgan 74 ayol hamda qaramog'ida nogiron bolasi bor 65 ona qaramog'ida. Ularga har to-monlama ko'mak ko'rsatilib, qo'llab-quv-vatlanayapti.

— "Ayollar daftari"ga kiritilgan xo-tin-qizlarga bosqichma-bosqich manzilli yordam ko'rsatilmoqda. Yaqinda 30 nafar ishsiz ayolni mahalliy korxonalarga ish-ga joylashtirib, bandligini ta'minladik. 62 nafariga subsidiya asosida turli mehnat jihozlari olib berildi va ular o'z-o'zini ish bilan band qildi. 21 nafariga bankdan kredit ajratilib, tadbirkorlik faoliyatini yo'l-ga qo'yishi uchun ko'maklashildi. Boquv-chisini yo'qotgan 135 xotin-qiz, ijtimoiy yordamga muhtoj, nogironligi bo'lgan 74 ayol hamda qaramog'ida nogiron bolasi bor 65 onaning har biriga 1 million 200 ming so'mdan bir martalik moddiy yor-dam ko'rsatildi. Shuningdek, 8 ayolning uy-joyi ta'mirlab berildi. Bu kabi amaliy ishlar davom etyapti, — deydi Uchquduq

tumani Oila va xotin-qizlar bo'limi muta-xassisi Yulduz Normamatova.

Ana shu ezgu ishlarning uzviy davomi sifatida tikuvchilikka qiziquvchi ko'plab ayollarga tikuv mashinalari olib berilishi opa-singillarimizning o'z-o'zini band etishi-ga xizmat qilmoqda.

Uchquduq Qizilqum bag'rida joylash-gan. Hududda chorvachilik yaxshi rivojlan-gan. Ovullarda tuyachilik bilan mashg'ullar talaygina. Tuya sudidan qimron tayyorlash esa nafaqat ular kundalik turmush tarzining bir bo'lgi, balki daromad manbaiga ham aylangan. Zoro, ming dardga davo tuya sutini ichish uchun mamlakatimizning turli viloyatlaridan kelishadi. Baxtigul Iztelueova ham shu ish ortidan daromad topmoqda.

— Bir necha tuyamiz bor. Ularning suti juda ham shifobaxsh va uni ichish uchun turli hududlardan keluvchilar talaygina. Shu tufayli olis cho'l hududida yashasak-da, daromadimiz yaxshi. Farzandlarimizning ta'lim olishi uchun barcha sharoit yaratil-gan. Kim qayerda yashashidan qat'i na-zar, mehnat qilsa, kam bo'lmaydi, — deydi Baxtigul Iztelueova.

Ha, moddiy va ma'naviy rag'bat, ruhiy qo'llab-quvvatlash, imkoniyatlar yaratish, ishonch bildirish orqali xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi faolligini oshirish muhim. Navoiylik xotin-qizlar ham bugunidan rozi, hayoti farovon, ko'ngli xotirjam va ertasiga ishonchi katta.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri



ZAMINIMIZDAGI XILMA-XIL MIKROORGANIZMLAR

jahon mikrobiologiya fani uchun o'ta qiziqarli yangilik manbayidir

ILM-FAN



Boshlanishi 1-betda

O'zbekiston Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya instituti ham ana shu rivojlanish jarayonida ishtirok etmoqda. Institut ko'z ilg'amas mikroorganizmlarni har tomonlama o'rganish va ulardan foydalanish bilan shug'ullanish bo'yicha yirik va yuqori ilmiy salohiyatni jamlagan muassasadir.

Institut direktori, biologiya fanlari doktori, professor Qahramon DAVRONOV bilan suhbatimiz muassasaning ilmiy tadqiqot faoliyati, ishlanmalarni tijoriylashtirish jarayoni, O'zbekiston mikrobiologiya fanining dunyo miqyosidagi nufuzi xususida bo'ldi.

— Ekologik toza biotexnologiyalar yaratishga asos bo'la oladigan mikroorganizmlarning mintaqaviy kolleksiyasini yaratish, tibbiyotda yangi, import o'rnini bosa oladigan dori-darmonlar, biologik faol moddalar, qishloq xo'jaligi amaliyoti uchun biologik o'g'itlar yaratish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, tuproq unumdorligini oshirish kabi masalalar yechimi aynan mikrobiologiya sohasi bilan bog'liq. Bu borada institutda qanday ishlar qilinmoqda?

— Bugun institut olimlari qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati, maishiy xizmat, hatto metan gazi chiqindisidan katta miqdorda biomassa to'playdigan mikroorganizmlardan foydalanib, kelajak uchun xizmat qiladigan yangi, raqobatbardosh, import o'rnini bosadigan, eksportga mo'ljallangan biotexnologiyalarni yaratishga e'tibor qaratmoqda.

Oldimizda yana bir o'ta muhim vazifa bor. Bu tuproq unumdorligini, qishloq xo'jaligi o'simliklarining hosildorligini oshirish imkonini beruvchi ekologik toza biologik preparatlar tayyorlash bilan bog'liq.

Atrof-muhitning o'zgarib borishi, Orol fojiasi, qurg'oqchilik va suvsizlikning tobora kengayishi qishloq xo'jaligi rivojiga, hosildorlik hamda sifatning tushib ketishiga sabab bo'lmoqda. Shunday murakkab sharoitda o'simliklar uchun foydali tuproq mikroorganizmlardan oqilona foydalanish katta ahamiyat kasb etadi. Zero, o'simlikning muayyan darajada sog'lom oziqlanishi tuproq tarkibidagi mikroorganizmlar bilan bog'liq.

Tuproqshunos olim, akademik Yevgeniy Mishustinning fikricha, 1 gektar tuproqda yashaydigan mikroorganizmlarning faol yuzasi 500 gektarga to'g'ri keladi. Ular shunday ulkan yuzadagi tuproqda kimyoviy reaksiyalarning o'zgarishini ta'minlovchi biologik katalizator-fermentlarni sintezlaydi. Ko'plab yirik molekulyar tabiiy moddalarni parchalab, ularni organik va mineral birikmalarga aylantiradi. Bu jarayon kecha-kunduz, qishin-yozin turli tezlikda to'xtovsiz yuz beradi hamda tuproq unumdorligi oshishiga xizmat qiladi. Ekologik inqiroz bu jarayonni sekinlashtiradi, hatto to'xtashga olib keladi. Bunday sharoitda turli sabablar bilan tuproq tarkibida yo'qolib ketgan mikroorganizmlarni qayta tiklash orqali tuproq "davolanadi", unumdorligi oshiriladi.

Institutimiz olimlari oldiga qo'yilgan asosiy vazifalardan yana biri o'simliklar uchun foydali mikroorganizmlarni sun'iy sharoitda ko'paytirish orqali tuproq unumdorligini oshiruvchi mikroorganizmlar yaratish va ularni hayotga tatbiq etishni nazarda tutadi. Bu borada oxirgi 6-7 yilda muassasamizda tarkibi,



ta'sir mexanizmi, spetsifikligi hamda turg'unligi turlicha bo'lgan, tuproq unumdorligini oshiruvchi mikroorganizmlar yaratildi. Tijoriylashtirish uchun ba'zilariga maxsus grantlar ham ajratildi. "Fitobiosol", "Azos-uz", "Ekobak", "Mikrozim", "Mikroo'stirgich" va boshqalar shular jumlasidan.

Ushbu preparatlar turli ekologik sharoitda o'simliklarni azot, fosfor, kaliy, temir, olingugurt va boshqa elementlar bilan ta'minlashga ko'maklashadi. Organik moddalarni chiritib, gumusga aylantiradi. Tuproqni organik chirindi, mikroelement, ferment, vitamin, fitogormon bilan boyitib, unumdorligini oshiradi. O'simliklarda stress omillarga nisbatan immunitetni shakllantiradi. Uzoq vaqt foydalanib kelingan kimyoviy o'g'it va pestitsidlarning zararli ta'sirini kamaytirishga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, chorvachilik, parrandachilik, quyonchilik va baliqchilikda qo'llanadigan qimmatli ozuqa-yem qo'shimchalar yaratish, tibbiyotda foydalanish uchun yangi biologik faol moddalar va dori-darmonlar ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar ham tizimli olib borilyapti. Jumladan, institut olimlari yaratgan va ayni paytda ishlab chiqarish hamda qo'llashga ruxsat etilgan "Baktovit" probiotikli ozuqa qo'shimchasi chorva mollari va parrandalar immunitetini oshirish, oshqozon-ichak tizimida uchraydigan bakterial kasalliklarning oldini olish va davolash hamda ovqat hazmini yaxshilash xususiyatiga ega. "Baktovit"dan foydalanilganda ozuqaning energetik qiymati va jonivorlarning mahsuldorligi 18-22 foizgacha oshgani, ozuqadan foydalanish esa 17-20 foiz pasaygani, ya'ni tejamlorlikka erishilgani tasdiqlangan. Buning ustiga, ushbu probiotikli ozuqa qo'shimchadan muqobil antibiotik sifatida foydalanish mumkinligi ilmiy va amaliy asoslangan. Ozuqa tayyorlashda "Baktovit"dan foydalanilganda jarayonda antibiotiklarni ishlatish holati qisqargan.

Yana bir misol: qishloq xo'jaligi va chorvachilikda yem-xashakni qayta ishlash, silos va senaj tayyorlash uchun "Imbiokon" biokonservanti yaratilgan. Uning yordamida silos va senaj tayyorlanganda patogen mikrobiom hamda mikotoksinnlardan xoli, himoyalangan mahsulot olish mumkinligi ko'plab tajribalar asosida isbotlangan. "Imbiokon" biokonservanti chorva mollari ozuqasini oqsil va vitaminlar bilan boyitadi, ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi, ozuqaning organizmga

yengil singishini ta'minlaydi va natijada mahsuldorlikni oshiradi. Ushbu ishlanma Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligi tomonidan foydali model sifatida qabul qilingan va patentlangan.

— Tibbiy amaliyotda qo'llash uchun institutda qanday yangi biologik faol moddalar va dori-darmonlar ishlab chiqish yo'lga qo'yilgan?

— "Laktoprolis-AWL" nomli biologik faol qo'shimchani dunyoda o'xshashi yo'q. U oshqozon yarasi hosil qiluvchi patogen bakteriyalarning rivojlanishini bostiradigan, mikroblarga qarshi oqsil birikmalarini sintezlovchi va shu orqali infeksiyani davolash samaradorligini oshiruvchi probiotik mikroorganizmlarning mahalliy noyob shtammlaridan tashkil topgan. Bu preparatning originalligi shundaki, uning tarkibiga kiradigan mikroorganizmlarning xususiyati Abu Ali ibn Sino davridan beri samarali biologik birikma sifatida tanilgan asalari propolisining biologik faol fraksiyalari bilan uyg'unlashtirilgan. Bu preparat oshqozon-ichak traktida sodir bo'ladigan disbiozni me'yoriga keltirish hamda kasallik qo'zg'atuvchi bakteriyalar to'planishining oldini olish uchun qo'llanadi. Shuningdek, oshqozon yallig'lanishini davolash uchun foydalanishga tavsiya etilgan va muvaffaqiyatli ishlatilmoqda.

Bu preparat yallig'langan to'qima-ni qayta tiklash xususiyatiga ham ega.



Import mahsulotlarga nisbatan oshqozon yarasinig ikki barobar tez bitishiga yordam beradi. Shuningdek, immunitet tizimining samarali ishlashiga ko'maklashadi. Ushbu biologik faol qo'shimchadan foydalanish oshqozon yarasinig mavsumiy qaytalanishini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ichak yallig'lanishi kasalliklari ko'rsatkichi yildan-yilga ortib bormoqda. U juda og'ir asoratlarga olib keladi, hatto ichak saratoni paydo bo'lishiga sababchidir. Shuni e'tiborga olgan holda institutda yana bir noyob preparat yaratilgan. "Probiokolit" nomli probiotikli biologik faol qo'shimcha aynan xavfsiz, samarador va yallig'lanishga qarshi kuchli ta'sirga ega. "Probiokolit" biologik faol qo'shimchasi antimikrob va inson immunitet tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatish xususiyati yuqoriligi bilan ajralib turadi. Ichak yallig'lanishining oldini olish va davolash maqsadida bemorlarga tavsiya etilgan "Probiokolit" biologik faol qo'shimchasi patentlangan hamda 2021-yilda Sog'liqni saqlash vazirligi ro'yxatiga kiritilib, ishlab chiqarishga ruxsatnoma olingan.

— Biologik faol moddalar olishning resurstejamkor hamda raqobatbardosh texnologiyalarini yaratish borasida qanday ishlar bajarilmoqda?

— Biotexnologiya inson faoliyati uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni biologik tizimlar, ya'ni tirik organizmlar, hujayra va/yoki ularning metaboliti (ularda sintez bo'ladigan faol moddalar) yordamida yaratish

usulidir. Mikroorganizmlar yordamida biologik faol moddalar olishning resurstejamkor va raqobatbardosh texnologiyalarini yaratish, avvalo, muhandislik, texnologik va biologik tafakkurning eng ilg'or, yangi yutuqlaridan foydalanishni talab qiladi.

Mana shular asosida texnologiyabop, chiqindi xomashyoda rivojlanib, istalgan narsani sintez qila oladigan, boshqa mikroorganizmlar va viruslar ta'siriga chidamli mikroorganizmlar yaratish ustida ishlayapmiz. Mikroorganizmlar yaratish asosiy jihatlardan biri texnologik parametrlarni laboratoriya tadqiqotlari davriy aniqlash imkoniga ega bo'lish bilan bog'liq. Shuning uchun ham institutimizdagi tadqiqotlar, avvalo, resurstejamkorlik, raqobatbardoshlik, import o'rnini bosadigan va eksportga mo'ljallangan texnologiyalarni yaratishga qaratiladi.

— Mavjud ilmiy-innovatsion salohiyatdan samarali foydalanish asosida innovatsion texnologiyalar yaratish, ishlanmalarni tijoriylashtirish borasida qilinayotgan ishlarga ham to'xtal-sangiz.

— Hozirgacha institutimiz olimlari qishloq xo'jaligi, farmatsevtika, tibbiyot, sanoat uchun foydalaniladigan bir necha ilmiy ishlanma yaratgan hamda ular yurtimizning turli hududida amaliyotga joriy qilingan. Jumladan, qishloq xo'jaligi ekin-



qurigan tubidan shunday bakteriyalardan o'nga yaqinini ajratib olishga erishdik va ulardan ba'zilari yaqin kelajakda qurilish biotexnologiyalari uchun asos bo'ladigan samarador xususiyatga ega ekanini aniqladik.

Eng faol bakteriyalardan uchta AQSHdagi Xalqaro mikroorganizmlar (NSBI) bazasidagi ma'lumotlarga kiritildi. Rossiyaning foydali mikroorganizmlar kolleksiyasiga topshirildi. Bu bakteriyalarni o'rganish orqali ularda qumli tuproq (grunt)ni barqarorlashtirish, shikastlangan betonli konstruksiyalarni qayta tiklash, yangi qurilish materiallari

tayyorlash, og'ir metall bilan ifloslangan tuproqni bioremediatsiya qilish (biologik qayta tiklash) xususiyati borligi ma'lum bo'ldi.

O'zbekiston iqlim sharoitiga moslashgan yangi shtammlar (bakteriya)lar yaqin kelajakda biotsementlash texnologiyalarining yanada istiqbolli variantini yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qilishi mumkin. Buning uchun yangi topilgan bakteriyalarni ko'paytirib, biomassasini ajratib olishni yo'lga qo'yish hamda yaratilgan yangi texnologiyali mahsulotlarga kafolati xaridor topish ustida izlanishlar olib boryapmiz.

Institutdagi ishlanmalarning ba'zilari tijoriylashtirilgan, ba'zilari esa tijoriylashtirishga tayyorlanmoqda. Xususan, "Yer malhami", "Fosstim", "Rizokom" bioo'g'itlari, "Serhosil", "Mikroo'stirgich" biopreparatlari, "Trixostim" ozuqa-yem qo'shimchasi, "Microzyme-1" va "Microzyme-2" enzimli organik o'g'itlari, "Laktopropolis", "Probiokolit" biologik faol qo'shimchalari, "Imbiokon" biokonservanti tijoriylashtirilgan. Ushbu ilmiy ishlanmalar intellektual mulk agentligining patenti bilan himoyalangan va guvohnomalarga ega.

— Soha oldida turgan muammolar nimalardan iborat?

— O'zbekistonda mikrobiologiya va mikroorganizmlar sohasida keng ko'lami ilmiy tadqiqotlar o'tkazish hamda olinadigan natijalar asosida iqtisodiyotning bir qancha tarmoqlari (farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat sanoati,

kimyo sanoati, ekologiya, gidrometallurgiya va boshqalar) uchun yangi innovatsion biotexnologik ishlanmalar yaratish mamlakat ilm-fanini rivojlantirish hamda dunyo reytingida yuqori pog'onalarni egallash kafolatidir. Chunki mikroorganizmlar biotexnologiyasi XXI asr fani va jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan shunday tan olinmoqda.

Mikrobiologiya instituti 1977-yilda tashkil etilganiga qaramay, hanuzgacha o'z binosiga ega emas. Institutning ilmiy yo'nalishi ko'proq qishloq xo'jaligi, tuproq muammolari yechimiga qaratilgan. Shuning uchun ham tajriba ishlab chiqarish bazasi hamda olingan ilg'or natijalarni sinovdan o'tkazish uchun tajriba uchastkasi zarur. Bu kabi muammolarni mustaqil hal qilish uchun klasterlar, ishbilarmonlar bilan tizimli ishlar olib borilmoqda. Yaqin kelajakda bu muammo ham ijobiy yechimini topib qolsa, ajab emas. Oxirgi 2-3 yilda ko'plab zamonaviy laboratoriya uskunlari xarid qilishga erishildi.

Faqat muammolarga to'xtalmay, yaratilgan imkoniyatlar haqida ham aytish o'rinni, albatta. Mikrobiologiya instituti laboratoriyalari uchun xarid qilinishi rejalashtirilgan ilmiy laboratoriya uskunalarining ro'yxati shakllantirilgan hamda 1 million 361 ming 900 AQSH dollari miqdorida mablag' ajratilishi belgilangan. Hozirgacha amalda qiymati 800 ming AQSH dollari miqdoridagi 8 turdagi laboratoriya uskunlari xarid qilinib, ishga tushirildi.

Shuningdek, institutda bajarilayotgan 1 ta fundamental, 12 ta amaliy, 4 ta xorijiy qo'shma, 1 ta tijoriylashtirishga tayyorlash loyihalarida belgilangan topshiriqni o'z vaqtida sifatli bajarish va ko'zlangan natijalarni olish maqsadida davlat xaridlari maxsus axborot portalida ilmiy tadqiqot loyihalarida doirasida xarid qilinadigan zamonaviy ilmiy laboratoriya uskunalariga nisbatan cheklov qo'llamaslik yuzasidan takliflar qo'llab-quvvatlangani faoliyatimizni yanada jadallashtirishga undaydi.

— O'zbekiston mikrobiologiya fanining dunyo ilm-fani rivojiga ta'siri qanday? Xalqaro hamkorlik xususida gapirib bersangiz.

— Mamlakatimiz iqlimi, ekologik holati hayratomuz darajada turfa. Bu o'rinda Orol dengizining qurigan tubidagi xilma-xil tuzga boy tuprogi, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida jazi-rama issiq ko'layotgan bir vaqtda Ko'kabuloq tog'ida, Maydanakda odamlar choponda yuradigan darajada salqin bo'lishi, yurtimizning turli joyida otilib turgan qaynarbuloqlar sho'rkonlarni nazarda tutaymiz. Bularning hammasi mikroorganizmlarning xilma-xilligi nuqtayi nazaridan o'rganilmagani sababli ham jahon mikrobiologiya fani uchun o'ta qiziqarli yangilik manbai bo'lib xizmat qiladi. Biz har yili 10-15 ta yangi mikroorganizmlarni AQSHning Xalqaro mikroorganizmlar bazasiga kiritamiz. Bu bazaga faqat yangi xususiyatlarga ega shtamlargina qabul qilinadi.

Bugun institutimizda 5 yo'nalishda xalqaro grantlar ustida tadqiqot olib borilmoqda. Xususan, Belarus mikrobiologlari bilan uch, amananonlik hamda rossiyalik hamkasblarimiz bilan ikki yo'nalishda ilmiy ish qilyapmiz. Muassasamiz hamda O'zbekiston Xalqaro mikroorganizmlar bazasiga kiritamiz. Bu bazaga faqat yangi xususiyatlarga ega shtamlargina qabul qilinadi.

Har bir laboratoriyaning ilmiy tadqiqotida zamonaviy usullar va yangi texnologiyalarni joriy qilish maqsadida Yevroosiyo mamlakatlaridagi jamoalar bilan ham aloqa o'rnatganmiz. Hozirgacha Rossiya, Belarus, Ozarbayjon, Qirg'iziston va Armaniston ilmiy-tadqiqot institutlari bilan 13 ta memorandum imzolangan. Bundan tashqari, institutimizda Rossiya, Belarus va Armaniston institutlari bilan hamkorlikda 4 amaliy va fundamental loyiha amalga oshirilmoqda. Bu ham O'zbekiston mikrobiologiya fanining bugun dunyo ilm-fani rivojiga qo'shadigan hissasi, qolaversa, ko'rsatadigan ta'siri in'ikosidir.

**"Yangi O'zbekiston" muxbiri
Risolat MADIYEVA
suhbatlashdi.**





MILLAT FIDOYILARI

MA'RIFIY ISLOHOT.

jonkuyarlari

**Jasurbek NORMATOV,**
Beshariq tumani axborot-
kutubxona markazi
direktori

Jadidchilikning o'ziga xosligi nimada? Eng avvalo, ularning aql-zakovati favqu-lodda yuksak rivojlangan, ham Sharq, ham G'arb madaniyati haqida muayyan bilimga ega bo'lgan. Ayni hol jadidlarning falsafiy dunyoqarashini belgilab bergan va bu ta'lim sohasini, umuman olganda, ma'rifatni isloh qilish borasidagi faoliyatida aks etgan. Jadidlar nafaqat bunday islohot o'tkazishni nazariy jihatdan asoslab bergan, balki ma'rifatni amalga oshirish uchun amalda ham tinmay harakat qilgan: ular yangi usuldagi maktab, kutubxona, qiroatxonalar ochgan, darsliklar, gazetalar chop etgan, ilk teatr tashkil etgan. Bu o'sha davr kishilari uchun ko'z ko'rib, quloq eshitmagan yangilik bo'lib, juda katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan va odamlar ongida inqilob yasagan.

Shu o'rinda Mahmudxo'ja Behbudiyning "Padarkush" pyesasini eslab o'tish joiz, unda bilimsizlik, johillik fojiga sabab bo'lishi ko'rsatib berilgan va yoshlar ongi keskin o'zgarishiga hissa qo'shgan.



— Men jadidlarning yosh tarkibini o'rgan-dim, — deydi tarix fanlari doktori D. Alimova. — Mashhur jadid va yoshlarning sevim-li ijodkori Cho'pon 1910-yilda 13 yoshda, Behbudiyning yoshi esa 30 dan oshiqroq bo'lgan ekan.

Darhaqiqat, harakat ishtirokchilari faqat yoshlardan iborat ekani yana ko'plab man-balarda ham ta'kidlab o'tilgan. Masalaga ayni shu jihatdan yondashish kerak bo'ladi. Bu yoshlar intellektual rivojlangan va Turkistonning taraqqiyotdan orqada qolayotgani sabablarini tushunar edi. Shuningdek, bu harakat ma'rifatparvarlikning chuqur ildizi bo'lib, faqat jadidchilik ko'rinishida zuhur bo'l-gani yo'q. Uning ma'rifatparvarlik ildizlari ham bor edi va jadidchilik ushbu harakatning akku-mulyatori — quvvat yig'uvchisi bo'ldi. Albatta, u oldingi adabiyot, oldingi falsafa yutuqlariga asoslangan. Jadidlar o'zini ushbu falsafaning tahlilchilari sifatida ham namoyon qiladi.

Bilamizki, mashhur ma'rifatparvar Ahmad Donish, shoirlar Muqimiy, Furqat, Hamza, Ubaydulla Zavqiy, Muhammad Bayoniy, Abay Qo'nonboyev va olim Cho'qon Vali-xonovlar ham islohotning hassos tarafdorlari bo'lgan, ular boshi berk ko'chadan chiqishni ma'rifatda va turkiy xalqlar birligida ko'rgan. O'tmishdoshlaridan ancha oldinlab ketgan va ma'rifatparvarlikdan siyosatga o'tgan jadidlar shu zaminidan unib chiqqan.

Mahalliy aholi kamsitilishiga
qarshiliklar

Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan, avvalo, siyosiy harakat edi. Ushbu harakat Turkis-ton, Buxoro va Xiva hududida 1895-yildan 1929-yilgacha bo'lgan davr ichida namoyon bo'ldi.

Biz jadidlar harakatini fenomen, deb ataymiz. Agar ular faoliyati juda qisqa muddat va muayyan siyosiy voqealar bilan cheklanmaganda uni kichik Rennessans deb atash mumkin bo'lar edi. Jadidlar faoliyati yana bir necha o'n yil davom etganida juda yaxshi natijaga erishgan hamda aholi ularni yaxshi qabul qilgan, g'oyalari yaxshi tarqalgan bo'lardi.

Birinchida Turkistonda podsho Ros-siyasining mustahkam o'nashib olishi kuza-tiladi. U o'z siyosiy vakillari yordamida xon va amir vakolatlarini cheklaydi va ularni qo'g'ir-choqqa aylantirib, rus va g'arb sarmoyador-larining ishlashi va yashashi uchun sharoit yaratadi. Ayni chog'da mahalliy aholining talab va ehtiyojlari nazarga olinmay qo'yildi, diniy e'tiqodi, urf-odat va an'analari bilan hisoblashmaslik, ularni mensimaslik kuchaydi. Hayotiy, ilmiy saviyasi yuqori bo'lgan qozilar tajribasiz kishilar bilan almashtirildi, pora-xorlik, ijtimoiy-siyosiy adolatsizlik avj oldi. Madrasa va maktablar faoliyatini cheklash, mahalliy joy nomlarini ruscha atamalar bilan almashtirish, mahkama jarayonida qozilar bo'yniga xoch taqitirishgacha borildiki, yerli aholini bu xilda tahqirlash hollari mustam-lakachilarning bedodligini yaqqol ko'rsatardi.

Millat istiqbolini o'ylovchi taraqqiyparvar kuchlar xalqning deyarli barcha tabaqalari — hunarmand, dehqon, savdogar, mulkdor, ulamolalar orasida mavjud edi. Ziyolilar dast-lab chorizmg'a qarshi kurashni xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otish — siyosiy-ma'rifiy jabhadan boshlashga qaror qildi. Jadidchilik harakati ana shunday tarixiy bir sharoitda Turkiston mintaqasida rivojlanish uchun o'zi-ga qulay zamin topdi.

Jadidchilikning asosiy g'oya va maqsad-lari Turkistonni o'rta asrlarga xos qoloqlik va diniy xurofotdan ozod etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, Turkistonda



Abdurazzoq boshchiligidagi qadimchilarga bo'lingan edi. 1908-yil "Buxoroi sharif shirkati" tuzilib, darsliklar nashr etish va kitob savdosi bilan shug'ullandi. Ahmadjon Hamdiy (Abusaidov), Usmonxo'ja Polatxo'jayev

odob-xalq negizida shakllangan edi. Mah-mudxo'ja Behbudi Gasprinskiyning maktab usulini, uning maqolalarini o'rgandi. "Usuli jadid" maktablari uchun bir qator darsliklar yozdi: "Qisqacha umumiy geografiya", "Bo-lalar maktubi", "Aholi geografiyasiga qar-shi", "Rossiyaning qisqacha geografiyasi", "Amaliyot islomi", "Islomning qisqacha ta-rixi".

Behbudiyning yangi maktab uchun yozgan asarlari maktab islohotida muhim rol o'ynaydi. Bu darsliklar nazariy, ilmiy va amaliy jihatdan keng qo'llaniladi. U Turkiston kelajigida yosh kadrlarni tarbiyalash masala-siga jiddiy e'tibor berdi.

Munavvarqori Abdurashidxonov XX asr-ni birinchi choragida Turkiston va Rossiya ziyolilari orasida mashhur edi. U yangi usul maktablarining asoschisi, mohir muallim darslik va o'quv kitoblari muallifi, jamoat ar-bobi edi. Munavvarqori Toshkentda "usuli savtiya" maktabini ochadi. Uning fikricha, maktabni isloh qilmasdan odamlar ongida o'zgarish qilib bo'lmaydi. Munavvarqori yoshlarni chet elga o'qishga yuborish, xorij ilmini o'rganishni targ'ib qildi. Shuningdek, bolalarni Germaniyada o'qitish tarafdori bo'lib, keyinchalik uni Vatanga xizmat qili-shini istagan edi. Munavvarqori ko'p (fors, arab, rus, turk) tillarni yaxshi bilgan, o'z atro-fida ilg'or kishilarni topagan.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Mirobod, ke-yinchalik Degrez mahallasida yangi usul maktablari ochdi. Bu maktablarda dars tizimi ona tilida yuritilishi bilan eski usul maktabla-ridan farq qilardi. U o'z maktabida — tabiat, geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob bo'yicha saboqlar tashkil qildi. Avloniy maktabida ta-biiy fanlar rivojlangan bo'lib, unda o'simliklar, hayvonlar xilma-xilligi, parvarish masalalari qiziqarli o'tilardi.

Xullas, ularning o'z darsliklarini tayyor-lashi Turkiston yoshlarining ilm-ma'rifati uchun tub burilish bo'ldi. "Kitobi avval" yoki matematika, adabiyot, geografiya bo'yicha darsliklarni olaylik. Albatta, ular qaysidir darajada xorijiy darsliklardan o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin, lekin shunga qaramay, bu juda katta og'a siljish edi. Jadid maktablari sinflarida globuslar turgan. Bu eski miqyos bilan solishtirganda, butunlay yangi narsa edi va albatta, ajoyib natijalar bergan.

Jadidlarning ko'pchiligi rus tilini yaxshi bilgan. Til konsepsiyasi Behbudiyning "Bir til emas, to'rt til lozim", nomli maqolasida ochib berilgan. Unga ko'ra, yagona imperiya tarkibida yashayotganimiz sababli, ayniqsa, rus tilini bilishimiz zarur. Biz harakatimiz tak-tikasini ishlash chiqish uchun qanday bosh-qarilayotganimizni tushunib olishimiz shart. Jadid maktablarda rus tili ham o'qitilgan. Yoshlar Yevropa adabiyotiga juda qiziqqan.

Musulmon modernizmi
ildizlari nimada edi?

Biz jadidchilikni musulmon modernizmi deb atashimiz mumkinmi? Bu savolga qis-man "ha" deb javob bersa ham bo'ladi, chunki ular faoliyatining ancha-muncha qismi aholi-ga Alloh bandasiga "o'qi" deb aytganini isbot-lashdan iborat bo'lgan. Hadislarda ilmi Chinda (Xitoyda) bo'lsa ham o'rganinglar, qabilida zikr etilgan. Uning ritorik tuzilmasi ildizlari O'rta Osiyoning musulmon an'anasiga borib taqaladi, shuning uchun jadidlar an'anaga ko'ra, islom diniga tayangan. Zamonaviylik islom dinining haqiqiy mazmuniga bog'lan-gan, faqat asrlar davomida paydo bo'lgan yot g'oyalardan tozalangan islom musulmonlar farovonligini ta'minlashi mumkin. Jadidlar-ni g'oyasi shu bo'lgan. Dunyoga yangi-cha nazar bilan boqar ekan, jadidlar islomni tushundi, musulmonlik nima ekanini angladi. Ularining jamiyatni yangilash nazariyasida taraqqiyotda juda oldinlab ketgan Yevropa bilan yaqinlashish, eng yaxshi yutuqlarini o'zlashtirish haqidagi masala jiddiy o'rin tut-gan. Turkistonning mustamlaka istibdodidan, inqirozli vaziyatdan chiqish, eng avvalo, Yev-ropa tajribasidan foydalangan holda madaniy islohotlar o'tkazishda ko'rilgan.

O'sha paytlarda ham ba'zi kishilar Sharq, jumladan, O'rta Osiyo Yevropaga juda ko'p narsa bergan, deb hisoblagan. Ular IX-XII asrlardagi Rennessansni hamda Temur va Temuriylar davridagi ikkinchi Rennessans-ni hisobga olib, Yevropa ilm-fan va tibbiyot rivojlanishi (Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asa-ri) sohasida juda ko'p narsa olgan, deb bil-gan. Endi esa ular, biz Yevropadan oladigan vaqtimiz keldi, chunki ushbu Rennessans XVI asrda Ma'rifat asridan boshlanib, Yevropaga ko'chib o'tgan, deb hisoblaydi.

Ular endi qayta o'zlashtirish vaqti kelgani-ni tushunadi. Fitrat shunday deb yozadi: "Ta-assufki, agar biz yo'qotilgan madaniyatimizni, tamaddunimizni qaytarish uchun, hech bo'l-masa, bir harakat qilmasak, ulamomiz, sen kofir bo'lding, deb aytadi va bizga xalqati bera boshlaydi". Mahmudxo'ja Behbudi zamo-nasidan ilgari lab ketgan edi. Masalan, Baho-vuddin Naqshband maqbarasiga borganda, uning atrofiga shunchalik ko'p masjid quril-ganini ko'rib, o'sha vaqt uchun jasorat bo'lg-an bir gapni aytadi: "Bir musulmon uchun burchalik ko'p masjidlarning keragi yo'q, unga ibodat qilishi uchun bitta jaynomozing o'zi yetadi. Bunchalik ko'p masjid qurgandan ko'ra, unga sarflangan mablag'ga farzandla-rimizni chet elga o'qishga yuborish vaqti kel-madimikan?". Umuman, ular g'oyalari, islom dinini isloh qilishga intilishi boshqa dinlarga nisbatan bag'rikenglikni tarbiyalash va G'arb-dan bilim o'zlashtirish edi.

Eh, bu yerda qanday talaba
yigit-qizlar o'qiyotganini
qarang!

Jadidlar odamlar ongida o'ziga xos o'zgarish yasashning uddasidan chiqqa bildi. Jamiyatni o'zgartirish konsepsiyasini yara-ta oldi va konsepsiya barcha masalalarni qamrab oldi. Yangi jadidlar adabiyoti, yangi dramaturgiyaga asos soldi. Turkistonda bi-rinchi teatr faoliyati yo'lga qo'yildi. Ta'limning yangi shakllarini yaratdi. Ular ehtimol, kichik ko'rinishda bo'lgandir, ammo butunlay yangi madaniyat yaratdi. Odamlar ongida ayollar-ga nisbatan kichik bo'lsa-da, o'zgarish yasay bildi, chunki asarlarida ayollarning jamiyatni rivojlantirishdagi ahamiyati haqida fikr yuri-tiladi. Albatta, birdan paranjini tashlab, yuzni ochib, jamiyat ishlarida ishtirok etishga da'-vat etmaydi.

Abdurauif Fitratning yuqorida tilga olingan oila haqidagi kitobining asosiy qismi ayol-ga, uni qanday hurmat qilish va unga qan-day munosabatda bo'lishga bag'ishlangan. O'sha kitobda "Qiz bolalar o'qishi kerakmi?", degan band ham bor. Muallifga ko'ra, inson-ing intellektual holati, oladigan ta'limi ko'p jihatdan ayollarga, onalarga bog'liq. Yozishi-cha, erkak tirikchilik uchun yegulik-ichgu-lik topish bilan band, ayol esa erkakdan ko'ra, ma'lumotliroq bo'lishi shart, chunki u, asosan, bolalar bilan shug'ullanadi. Dar-haqiqat, shunday. Ayollar ta'limi rivojlan-ganini va ayollar maktabi bo'lganini, ularda ayollar ta'lim olib, Sharq mumtoz adabiyoti o'qitilganini bilamiz. To'g'ri, biz texnikaga oid fanlar haqida gapirayotganimiz yo'q, lekin shunday bo'lsa-da, ayollar ta'lim olgan. Bu — bizning madaniy merosimiz. Umuman, bu nafaqat O'zbekistonning, qolaversa, barcha xalqlarning merosi, chunki bu intel-lektual muhit mavjudligini, ongi va intilishlari qanday bo'lganini ko'rsatadi. Masalan, Beh-budiy haiga borganida Bayrut universitetini zi-yorat qiladi. Hayratga tushib, "Ey Xudo, bularning laboratoriyalarini qaranglar", deb yozadi. U kimyo laboratoriyasi bilan tani-shadi. "Bu yerda qanday talabalar va qizlar o'qiyotganini qarang! Yutuqlar ham shuncha bo'ladimi! Nega bu musulmon mamlakatida bunday universitet bor, biz ham musulmon mamlakatimiz, lekin Turkistonda oliy dara-jadagi birorta ham, ha-ha, birorta ham ta'lim muassasasi yo'q".

Turli mamlakatlardagi ma'rifatparvarlik harakatlarga xos bo'lgan ayrim xususiyat-lar bilan bir qatorda umumiylik ham mavjud bo'lgan. Bu Turkiston jadidlari faoliyatida ham o'z ifodasini topdi. Ular siyosiy qoloqlik-ka, mavjud tuzumning ijtimoiy-huquqiy ko'ri-nishi va kamchiliklariga qarshi kurashdilar, ma'rifati shakllantirish, ozodlik, ma'naviy madaniyatni boyitish, xalq ommasini manfaa-tlarini himoya qilish, turmush farovonligini oshirish tarafdori edilar.

Turkiston ilg'or ziyolilarining eng muhim yutuq'i xalq ta'limi tizimi hukmron mafkura-dan xoli, shuningdek, ilg'or g'oyalarni tarqa-tishning eng muhim vositasi sifatida milliy matbuot asoslarini yaratish sharti.

Bir tomondan, ular Yevropa ilmiy-texnika-viy tafakkuri, madaniyatni yutuqlarini, iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy hayot me'yorlarini targ'ib qildilar. Boshqa tomondan, o'tmishni qay-ta tiklashga, shariat talablariga zid bo'lgan burjua odatlarining kirib kelishiga qanday-dir tarzda qarshilik ko'rsatish istagini uyg'o-tishga, islom tarixiga qiziqish uyg'otishga harakat qildilar. Jadidlar dunyoviy ta'lim va bilimni mutaxassislar tayyorlash zarurli-gi haqida gapirar ekan, o'z fikrlarini Qur'on va hadislardan ilzadi va tasdiqlashdi, o'z matn-lariga Turkistondagi ijtimoiy, ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyot ehtiyojlariga javob beradi-gan ma'no berdilar.

Muxtasar aytganda, millat istiqbolini uchun kurashgan ma'rifatparvar bobolarimiz sa'y-harakati zamidra huquqiy demokratik davlat uchun asos bo'ladigan yuksak g'oya-lar poydevori mujassam edi.

“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DUK

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-746.
43927 nusxada bosildi.

Hajmi — 3 taqoq. Ofset usulida bosilgan. **Qog'oz bichimi** A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Dilshod Ulug'murodov
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100029,
Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03-35

Qabulxona: (71) 233-56-33

Devonxona va e'lonlar: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz Web-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05